

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA USLUBIYATI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika-psixologiya fakulteti dekani
_____ prof.X.A.Meliyev
“ _____ ” _____ 201_ y.

**5141700 – Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**“KICHIK YOSHLI BOLALARNI AQLIY TARBIYALASHDA
MONTESSORI METODIKASIDAN FOYDALANISH”
MAVZUSIDA BAJARILGAN**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: **Shukurova Gulnoza Axatovna**
Ilmiy rahbar: **Kat.o'qit.M.Usmonova**
Ilmiy maslahatchi: **prof.T.S.Usmonxo'jayev**

Ishni himoyaga tavsiya etaman **kat.o'qit.M.Usmonova** _____
(imzo)

BMI Maktabgacha ta'lim nazariyasi va uslubiyati
kafedrasi yig'ilishining qarori bilan (Qaror№_.
_____.201__ y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots.R.Abdurasulov** _____
(imzo)

Jizzax - 2012

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika – psixologiya fakulteti “Maktabgacha ta’lim va bolalar sporti” yo’nalishi bitiruvchisi Shukurova Gulnoza Axatovnaning “Kichik yoshli bolalarni aqliy tarbiyalashda Montessori metodikasidan foydalanish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

XULOSASI

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti pedagogika-psixologiya fakulteti maktabgacha ta’lim bitiruvchisi Shukurova Gulnoza tomonidan “Kichik yoshli bolalarni aqliy tarbiyalashda Montessori metodikasidan foydalanish” mavzusida bitiruv malakaviy ishi maktabgacha ta’limda Montessori metodikasidan foydalanish uslubiyatini ishlab chiqishga e’tibor qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishida ko’zda tutilgan masala bolalarni har tomonlama tarbiyalash va erkin fikrlashga, mustaqil ishlash ko’nikmalarini shakllantirishda Montessori metodikasidan foydalanishning ahamiyatini ochib bergan. Birinchi bobda bolalarni aqliy tarbiyalash jarayoni va bolalarni aqliy tarbiyasiga qo’yilgan talablar ochib berilgan.

Ikkinchi bobda Montessori metodikasidan kichik yoshli bolalarni aqliy tarbiyalashda foydalanish usullari, mashg’ulotlarda foydalanish jarayoni haqida fikr yuritilgan. Muallif tomonidan nazariy qism mazmunli taqdim etilgan. Tajriba –sinov ishi natijasida kerakli tavsiyalar berilgan va xulosalangan.

Ish yakunlangan va xulosalangan. Shukurova Gulnoza tomonidan bajarilgan BMI oliy o’quv yurtlari tomonidan bajariladigan bitiruv malakaviy ishiga qo’yilgan barcha talablarga to’liq javob beradi. Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

kat.o’qit.M.Usmonova

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika – psixologiya fakulteti “Maktabgacha ta’lim va bolalar sporti” yo’nalishi bitiruvchisi
Shukurova Gulnoza Axatovnaning “Kichik yoshli bolalarni aqliy tarbiyalashda Montessori metodikasidan foydalanish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Aql keng ma’noda sezish va idrok etishidan boshlab to tafakkur va xayolni o’z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig’indisidir.

Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma’lum maqsadga qaratilgan bo’lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi (masalan, kattalarda mehnat faoliyati, bolalarda o’yin, o’quv faoliyati).

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma’lum maqsad bilan ta’sir etishidir. U bolalarga tevarak –atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg’otishni, aqliy malaka va ko’nimklarni tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o’z ichiga oladi.

Shukurova Gulnoza tanlagan muammo bolalarni aqliy jihatdan maktabga tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ishning birinchi bobi maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashga qo’yiladigan talablar va sharq, g’arb mutafakkirlarining shu sog’a bo’yicha bildirgan fikrlari to’g’risida bo’lib, bob nazariy jihatdan to’g’ri ochib berilgan.

Ikkinchi bob amaliy qism bo’lib, asosan tajriba-sinov ishlariga e’tibor berilgan. BMI yakunlangan, kerakli xulosalar va metodik tavsiyalar berilgan..

Bitiruv malakaviy ishini DAK huzurida himoya qilishga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:

G.Quvnoqova

**Jizzax Pedagogika kolleji
Pedagogika kafedrası mudiri.**

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika – psixologiya fakulteti “Maktabgacha ta’lim va bolalar sporti” yo’nalishi bitiruvchisi
Shukurova Gulnoza Axatovnaning “Kichik yoshli bolalarni aqliy tarbiyalashda Montessori metodikasidan foydalanish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Aqliy tarbiya-shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U bolalarga aqliy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularga shaxsning aqliy his tuyg’u va sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan jarayondir. Aqliy tarbiya jarayonida bola aqliy jihatdan kamolga yetadi. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyalashning rol katta. Bolalarning bilimlarni egallab olishlari, ularning aqliy faolligini rivojlantirish, mustaqillik, aqliy malaka va ko’nikmalarni egallab olishlari ularning maktabda muvaffaqiyatli o’qishi va bo’lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo’lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 5 paragraf, tajriba-sinov ishlari, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo’lib, mavzu to’liq yoritib berilgan. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o’rganilishi, maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, tadqiqot metodlari, tadqiqotning metodologik asosi ochib berilgan.

Olib borilgan tajriba – sinov ishlari tahlil qilingan, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ish yakunlangan va xulosalangan. Bitiruv malakaviy ishi Davlat Attestatsiya komissiya talablari doirasida rasmiylashtirilgan. Ishni ijobiy baholayman va himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

B.Sovatov

**Maktabgacha ta’lim
nazariyasi va uslubiyati
kafedrasi dotsenti.**

M U N D A R I J A

KIRISH.....

**I.BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR
AQLIY TARBIYASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR
VA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING AQLIY
TARBIYAGA OID QARASHLARI.**

1.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar aqliy tarbiyasiga
qo'yiladigan talablar.....

1.2. Aqliy tarbiya va ta'lim tushunchasining mazmuni va
ahamiyati.....

1.3. Sharq va g'arb mutafakkirlarining qarashlarida aqliy
tarbiyaning ifodalanishi.....

**II.BOB. BOLALARNI AQLIY TARBIYALASHDA
MONTESSORI METODIKASIDAN FOYDALANISH
SHAKLLARI.**

2.1. Mariya Montessori metodikasida kichik yoshdagi bolalar
aqliy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....

2.2. Mashg'ulotlar jarayonida Montessori metodikasi yordamida
bolalarni aqliy tarbilash.....

2.3. Tajriba –sinov ishlari natijalari va samaradorligi.....

XULOSAR.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

ILOVALAR.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi:

Mustaqillik sharofati bilan “Ta’lim to’g’risida” Qonun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni hayotga tatbiq etish jarayonida maktabgacha ta’lim tarbiya sohasida ham tuyu islohatlar amalga oshirilmoqda. Farzandlarimiz sog’ –salomat bo’lib yetishlari uchun har tomonlanma bekomu ko’st yaslilar, bog’chalarda tarbiyalanishlari, xorijiy tillarni o’rganishlari kompyuterlar bilan ishlash uchun sharoitlar yaratildi. Mutafakkirimiz ta’kidlaganidek “Yoshlikda olgan bilim toshga o’yilgan naqshdir” zero tarbiya ishi qancha erta boshlasak uning ijobiy mevasi shuncha erta ko’zga tashlanadi.

Shuning uchun tarbiyachi pedagoglarning vazifasi yosh avlodni aqlan yetuk, jismonan sog’lom, ahloqan pok mehnatsevar qilib, estetik barkamol qilib tarbiyalashdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limini takomilashtirishda milliy o’quv –usulbiy qo’llanmalar yaratishni eng muhim vazifalardan biridir.

Zero, maktabgacha ta’lim muassasasida birinchi bor o’quv –uslubiy majmui yuzaga keldi. Uning tarkibiga tayanch dasturi, o’quv qo’llanma “Bolangiz maktabga tayyormi? Nomli kitob kirgan, ushbu tayanch dasturi amalda qo’llanilib, respublikamizda qator ijobiy tajribalar turlandi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim tarbiyasiga qo’yilgan davlat talablarini amalga oshirishda erkin fikrlashga, fikr va mulohazalarni to’liq va ravon ifodalashga o’rgatishga yangi

pedagogik texnologiyani, mujassam mashg'ulotlarni viktorina, sayohat, quvnoq musobaqalar va test –mashg'ulotlarining ahamiyati o'ziga hosdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida “Bolajon” tayanch dasturini amalga oshirishda davlat talablarini to'laligicha amalga oshirishda yangi pedagogik texnologiyalarni o'rni beqiyosdir.

Har qanday tarbiya asosan bolalarning murg'aklik davridan maktabgacha yoshdan boshlanadi. Ta'lim –tarbiyaning maqsadi ham ularni amaliy faoliyatga tarbiyalashdan iborat.

Bunda asosan maktabgacha ta'lim muassasasi hamda oilaning faolityaini uyg'unlikda olib borish halqimiz ta'kidlagandek “Bir bolaga yetti mahalla ota –ona” iborasidek mahalla, qo'ni – qo'shnilar yordamida bolani yetuk barkamol inson qilib tarbiyalashga o'zining beminnat xizmatini qo'shish lozim. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda shakllangan dastlabki mafkuraviy ong, his –tuyg'u va ahloq butun bolalik faoliyatida o'zaro, hamda kattalar bilan bo'ladigan munosabatda u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham bolalikning ilk yoshidan boshlab mafkuraviy tushunchalarni singdirishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yoshi yashash muhiti, shaxsiy xususiyatlari va ruhiy holatlari ham ular faoliyat, ya'ni o'yin, mehnat va turli mashg'ulotlar hisobga olinadi.

Bu bosqichda tarbiya aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, bolalarning ijobiy ruiy kechinmalari his –tuyg'ularni uyg'unlashtirish asosida insonparvarlik, mehr –sohavot, o'zaro yordam o'z faoliyatini

mustaqil ravishda idrok etish kattalar topshirig'ini bajarish, jamoa manfaati bilan o'z manfaatini uyg'un qo'yish kabi his –tuyg'ularni tarkib toptirish hisobiga olinadi. Bolalarga jamiyatda o'zlarini namunali tutishlari o'zga kishilarga samimiy munosabatda bo'lish kerakligi o'rgatiladi.

Bolalar tarbiyasida tarihiy, an'anaviy aqliy qoidalar, muomila madaniyati non va suvga extiyotkorona munosabatda bo'lib kerakligi o'rgatiladi. Bolalar tarbiyasida tarkibiy an'anaviy aqliy qoidalar, muomala madaniyati milliy xususiyatlar inobatga olinib ularning butun hayoti kattalar g'amxo'rligi nazorati asosida tashkil etiladi.

Ular katta yoshlarni hurmat qilish kichiklarga izzatda bo'lish, atrofdagi kishilarga xayrxohlik bilan munosabatda bo'lish kabi aqliy sifatlarni shakllantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish muhim.

Bolalarni milliy mafkura ruhida tarbiyalashda aqliy his –tuyg'ular, tasavvurlar hatti –harakatlar, xulq madaniyati salbiy jihatlarni barhamtoptirish g'oyaviy va tarbiyaviy ishning maqsadiga ko'ra tashkil etish uni, hayot va zamon talabi bilan bog'lab olib borish, buyuk mutafakkirlarimiz meroslaridan unumli foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda Temur, Ibn Sino, Beruniy, Al Buxoriy, Farobiy, Mirzo Ulug'bek, A.Navoiy kabi allomalarning jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan ishlari haqida hikoyalar, suhbotlar, she'rlar, rasmlar kinofilmlar orqali singdirib boriladi. O'rta Osiyo qadimdan ma'naviy –aqliy tarbiyaning o'chog'i hisoblanadi. Bolalarni odob –ahloqli halol pok, or –nomusli qilib

tarbiyalash halqimizning milliy qadriyatlari tarbiyaga kiradi. Inosni odob –ahloqiga qarab munosabatda bo'lish halqimizga xos xususiyatdir. Bolalar bog'chasida aqliy tarbiya berish har –xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Avvalo bolalarni har –xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda ta'lim berish; kun davomida maishiy faoliyatda; mustaqil badiiy faoliyatda, kungil ochishlarda qatnashtirish orqali bo'lish hal etiladi. Har –xil bayramlar san'at vositalari ijtimoiy hayot voqyealari, bolalar badiiy adabiyoti musiqa, ashula, tasviriy va amaliy san'at o'yinchoq va o'yin materiallari; oilaviy axborot vositalari, oynaijahon va radio, kino va diofilmlar, diorozitlar va boshqalar bolalarning aqliy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu hamma vositalarda keng ravishda, ma'lum izchillik va sistemalilik bilan foydalanilganda bolalarning aqliy tarbiyasiga samarali ta'sir etish mumkin. Masalan kichik yoshli bolalar aqliy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlaridan yaxshi o'zlashtirib oladilar.

Shunday qilib bolalarning aqliy tasavvur va tushunchalarni egallab olib, uni kundalik odotga aylantirishlari uchun bolalarning kattalar rahbarligidagi qizg'in faoliyati tashkil etilishi lozim. Tarbiyachi bola shaxsda aqliy his tuyg'ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va usullarni qo'llaydi. Chunki u shunday qilgandagina yaxshi xulq na'munalarini o'rgatish mumkin.

Bizning ushbu malakaviy bitiruv ishining asosiy mazmuni ham bolalar bog'chasida aqliy tarbiyani shakllantirishda va uni har tomonlama yosh avlodga yetkazib berishdir.

Zero Abdulla Avloniy bobomiz ta'kidlaganidek: "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsada ikkisi bir –biridan ayrilmaydurgan birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir".

Hozirgi davrda aqliy tarbiya muhum ahamiyat kasb etmoqda. Chunki siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni hal etish ko'p jihatdan jamiyatning undagi har bir shaxsning aqliy darajasiga bog'liqdir. Pedagogika va ruhiyatga oid juda ko'p tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha maktabgacha tarbiya davri bolaning ma'naviy shakllanishda eng muhum bosqichdir. Xuddi mana shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim tarbiya asosida shaxsning aqliy va aqliy sifatlari shakllana boshlaydi. 6-7 yoshga borganda esa ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga kelib bola tevarak atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatda ana shu egallab olgan ahloq qoida va normalari nuqtai nazardan ish tutadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab aqliy tarbiya borish muhum ahamiyat kasb etadi.

Aqliy tarbiyani shakllantirishda maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi zamon talablaridan kelib chiqqan holda mashg'ulotlarni tashkil etish, ilg'or pedagogik dasturdan foydalanish muhum ahamiyatga ega hisoblanadi. Shunday ekan, biz tanlagan ushbu ishning mavzusi ham dolzarb mavzulardan biri deya olamiz.

Tadqiqot maqsadi:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashda M.Montessori metodikasi

Tadqiqot vazifalari:

1.Sharq mutafakkirlarining aqliy tarbiya haqidagi fikrlarini o'rganish va tahlil qilish;

2.Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy tarbiyasiga qo'yilgan talablar;

3. Mariya Montessori va uning metodikalaridan o'rganish;

4. Mashg'ulotlar jarayonida Montessori metodikasidan foydalanishning ahamiyatini o'rganish.

Tadqiqot obyekti:

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari.

Tadqiqot predmeti:

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy fazilatlarni shakllantirish jarayoni

Tadqiqotning metodologik asosi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi; O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun I.A.Karimovning ta'lim –tarbiyaga oid asarlari Mariya Montessori metodikasi sharq halqlarining milliy tarbiya mazmunini o'zida mujassam etgan halq pedagogikasi, diniy manbaalar sharq mutafakkirlarining asarlarida olg'a surilgan komil inson g'oyasi haqidagi qarashlari: rasmiy xujjatlar tarbiyalanuvchilarni aqliy jihatdan barkamol qilib

tarbiyalashning pedagogik asoslarini ishlab chiqishda yo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan metodlar:

- mavzuga oid adabiyotlarni, rasmiy xujjatlarni o'rganish va tahlil qilish;
- katta bog'cha yoshidagi tarbiyalanuvchilarni aqliy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash bo'yicha to'plangan ilg'or ish tajribalarni kuzatish, tahlil etish va umumlashtirish;
- bog'cha tarbiyachilari, tarbiyalanuvchilari bilan mavzu asosida suhbatlar uyushtirish, so'rovlar o'tkazish;
- tajriba sinovlar o'tkazish natijalarni matematik statistik qayd etish;
- ilmiy tadqiqot ishlarini rasmiylashtirish.

Ilmiy tadqiqotning amaliy ahamiyati:

Tadqiqotimiz mazmunini yoritishda biz ko'plab ilmiy adabiyotlardan, shuningdek vaqtli matbuot nashrlaridan foydalangan holda o'rganishga harakat qildik. Kuzatish va pedagogik amaliyotda qo'llagan tajribalarimiz natijasida ushbu ilmiy izlanishimizni bir yo'riqnoma sifatida jamlashga harakat qildik. Agar bu tadqiqotimizdan tarbiyachilar, talabalar shu sohaga qiziquvchilar o'zlari uchun biron –bir ma'lumot ololsalar biz o'z maqsadimizga erishdik deya olamiz.

BMI tuzilishi: Kirish , ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR AQLIY TARBIYASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING AQLIY TARBIYAGA OID QARASHLARI

1.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar aqliy tarbiyasiga qo'yiladigan talablar

Hozirgi davrda Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” degan fikrini ko'p mushohada qilinmoqda. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda bu uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir.

Chunki ta'lim tarbiya ong mahsuli lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim –tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi”-:degan Prezidentimiz I.A.Karimov

Hozirgi davrda aqliy tarbiya muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni hal etish ko'p jihatdan jamiyatning va undagi har bir shaxsni aqliy darajasiga bog'liqdir.

Aqliy tarbiya-shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U bolalarga aqliy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularga shaxsning aqliy his tuyg'u va sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan jarayondir.

Aqliy tarbiya jarayonida bola aqliy jihatdan kamolga yetadi. Aqliy tasavvurlarning rivojlanish jarayonida eng avvalo ular o'zlarining boshqalar bilan bo'ladigan munosabatlarida ongli tushuna boshlaydilar; tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabatlarda ahloq sabablari rivojlana boradi.

Tarbiya shunday tashkil etilishi kerakki aqliy talablar bolalar xulqi, ularning o'zaro munosabatlari uchun mo'ljal bo'lsin. Pedagogika fani bolaning aqliy rivojlanishda tarbiya va ta'limni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid juda ko'p tadqiqotlar natijalarni ko'rsatishiga maktabgacha tarbiya davri bolaning ma'naviy shakllanishda eng muhim maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya shakllana boshlaydi. 6-7 yoshga borganda esa ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga kelib, bola tevarak –atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatda ana shu egallab olgan axloq qoida va normalari nuqtai nazaridan ish tutadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab aqliy tarbiyaga berib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tarbiyaga shunday tashkil etilishi kerakki, aqliy talablar bolalar xulqi ularning o'zaro munosabatlari uchun mo'ljal bo'lib qolsin” Insonning aqliy rivojlanishda odamlarning birga yashashlari jarayonida shakllangan va rivojlangan boyigan holda avloddan-avlodga o'tadigan oddiy axloq normalarini egallash katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashda yuzasidan olib boriladigan ishlar umumiy vazifalarga muvofiq

rivishda taokmillashtirilishi lozim. Maktabgacha yoshda shakllanadigan aqliy his –tuyg’ular, xulq atvor odatlari va tasavvurlar butun bolalar faoliyatiga va ular o’rtasidagi bolalar bilan kattalar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar kompleksiga hal etuvchi ta’sir ko’rsatadi. Ta’lim –tarbiyaviy ishlar mazmuni va shakllari bola imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtiriladi. Pedagoglarning “Bolalar bog’chasida ta’lim -tarbiya dasturi”ga tayanib, maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy va mehnat faolligini rivojlantirish insoniy fazilatlar va jamoatchilik asoslarini, fuqarorlik his –tuyg’ularini rivojlantirish to’g’risida iloji boricha g’amxo’rlik qilishlari muhimdir.

Shu maqsadda bolalarning qo’llaridan keladigan ishlarni bajarish, o’yin va mashg’ulotlardagi ta’lim, o’yin va mashg’ulotlardagi ta’lim, mazmunli muloqotdan foydalanladi.

Bolalar bilan rejali ravishda izchil ish olib borish ularning aqliy tasavvurlarini ham, real aqliy xulq –atvorlarni darajasini ham oshiradi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ko’p narsani o’z qo’llari bilan qilish va qilingan ishlardan quvonish, kattalar mehnat natijalarni qadrlash ko’nikmalarni rivojlantiradi; umumiy foydasi uchun qilinadigan ishlarda o’zlari ishtirok etishga, birga o’ynash, shug’ullanish, umumiy maqsadlarni qo’yish va amalga oshirishga intilish vujudga keladi. Bularning barchasi bola shaxsining ijtimoiy yo’nalishini belgilaydi eng muhimi ancha keyin, maktab yoshid g’oyaviy siyosiy aqliy tarbiyani mufaqqiyatli amalga oshirish,

dunyoqarashni mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish imkonini berali.

Qadim –qadimdan o'zbek, sharq klassiklari ijodida axloq – odob masalasi markaziy o'rin egallab kelgan. Kaykovusning “Qobusnoma” sidan tortib Al –Xorazmiy, Abu Nosr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlaridan Yusuf Xos Xojibning “Qutatg'u bilig” (Baxt keltiruvchi bilim) Axmad Yugnakiyning “Hibotul haqoyiq” (Haqiqat sovg'alari) imom Ismoil al Buxoriyning “Al –Adab al Mufradot” (Adab durdonalari) kabi jaxonga mashg'ur asarlarida, Alisher Navoiyning o'lmas she'riyatida, Munis Xorazmiyning “Savodi ta'lim” ida, Kamoliddin Xusayin, Voiz Koshifiyning “Axloqi muhsimiy” kabi asarlarida axloq odob masalalari yoritilgan.

Koshifiyning asarlaridagi ta'lim –tarbiya axloq masalalari ko'pchilik chun andoza, namuna, odob normasi sifatida qisqa, asosli yakunda qilib yozilgan.

Koshifiyning asarlaridagi ta'lim –tarbiya axloq masalalarini ko'pchilik uchun andoza hisoblanadi. Koshifiyning fikricha inson fazilati uning egallagan ta'lim –tarbiyasiga bog'liq.

Shundagina u odobli hisoblanishi mumkin. “Odob –bu qalbim yomon so'zlardan va namunali xulqdan saqlay olish, o'zini va so'zlarni ham hurmat qila bilishdadir”¹ deydi mutafakkir. Uning fikricha yaqin fikrni A.Navoiy ijodida ham ko'ramiz.

¹ T.Yusupova. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Toshkent. O'z.1999yil. 100 bet

Axloqning eng muhim mezonini sanalgan odob haqida fikr yuritish ekan: “Adab kichik yoshdagilarni ulug’lar duosiga sazovor etadi va u duo barokati bilan umrbod bahramand bo’ladi. Adab, kichiklarning mehrini ulug’lar ko’ngliga soladi va u muhabbat ko’nglida abadiy qoladi”² degan edi buyuk shoir. Bu bilan u kishilarning insoniylik belgini uning odobli, axloqli ekanligi bilan o’lchanadi, deb ta’kidlaydi.

A.Navoiyning “Mahbub ul qulub” asarida odob axloqqa oid g’oyalar ilgari surilgan. Uning birdan –bir orzu –umidi, ideali insonga bo’lgan mehr muhabbat, samimiylik edi. Uning quyidagi misralari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Menga na yodu na oshiq havasdir.

Garchi men odam o’lsam –ushbu basdir

Yoki:

Favron elining jismida ham jon bo’lg’in.

Ham jonlariga malak darmon bo’lg’ir.

Yoki:

Nafing agar xalqqa beshik erur.

Balki bu naf o’zingga kshproq erur.

Yuqoridagi she’riy satrlardan ko’rib turibmizki. A.Navoiy inonparvarlik g’oyalarini nihoyatda ulug’lagan. Mutafakkirlarimizning asarlarida xalq so’ziga, maqolga aylanib ketgan hikmatli gaplarni ko’plab keltirishimiz mumkin.

² K,Хошимов., С.Нишонов. “Педагогика тарихи”. Тошкент. Ўз.1996й,187 бет

Koshifiyning “Yoog’onchilik seni xorlikka yetaklaydi, rostgo’ylik esa baxtsizlikdan saqlaydi” va “odob –oltindan qimmat” kabi durdona fikrlari shular jumlasidandir.

Imom Ismoil Al –Buxoriyning “Al –adab Al –mufradot” (Adab durdonlari) kitobi ota –onani hurmat qilishga o’rgatish tshg’risidagi so’zlar bilan boshlanadi.

Jumladan, kitobning 13 –sahifasidagi shunday deydi “Alloh taollohning roo’i bo’lishi avvalo onaning va yana onannig keyin esa otaning rozi bo’lishiga bog’liqdir. Donishmandlar aytadurlarki odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go’zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir”³

Buyuk mutafakkir, fors –tojik adabiyotning namoyondalaridan abulqosim Foruxxiy adabning qimmatini shunday tariflaydi:

Yaxshi xulq shohlik va katta mamlakatdan yaxshiroq.

Sof tabiat tilla gavhar qonida ham yaxshiroq.

Voiz Koshifiy insonlarda oq ko’pchilik bag’ri kenglik, mehnatsevarlik, sofdillik, rostgo’ylik, saxiylik, vijdoniylik, irodlik qatiyatlilik kabi fazilatlar bo’lishi shart va bular insolnning barkamoligidan dalolat beradi, deydi.

Abu Nasr Farobiy inson o’zining yaxshi xulqi bilan baxt – saodatga erishishi mumkin deydi.

Zamonamizning erik ma’rifatparvarlaridan bo’lmish Abdulla avloniy inson barkamoligi uning ahliga, jismoniy sog’lomligida

³ Имом Исмоил Ал Бухорий. “Ал –адаб, Ал –Муфрадот” Хадис. Тошкент. 1991й. 11 –хадис.13 бет

hamda odobli xushxuligida, deb biladi. “Abdulla Avloniy til va soʻz odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni shunday taʼriflaydi:” ...soʻz insonning darajada va kamolini, ilm va odobini oʻlchab koʻrsatadigan tarozidiryu aql sohiblari kishining dildagi fikr va niyatini, ilm va odobini oʻlchab koʻrsatadigan tarozidir. Aql sohiblari kishining dildagi fikr va niyatini, ilm va quvvati, qadr va qimmatini soʻzlagan soʻzidan bilurlar”⁴

U inson odobidagi hayo va ifatni yuqori baholaydi, hayo deganda ishda, soʻzda adabda rioya qilmoqni tushunadi, uni insoniylikning muhim belgisi, bed biladi.

Abdulla Avloniy axloq –bu xulqlar majmuasidir, ammo yaxshi xulq oʻz –oʻzidan paydo boʻlmaydi. Ularning shakllanishi uchun maʼlum bir sharoit –tarbiya kerakligini gapiradi.

Avloniy tarbiyaning bola kamolotida tutgan oʻrni toʻgʻrisida shunday deydi. Temirchining bolasi tarbiya topsa boʻlur olim.

Buzilsa xulqi, luqmon oʻgʻli boʻlsa boʻlgʻusi zolim.

Davrimizning taniqli allomalaridan biri professor Shoislom Shamohmudov odobli boʻlish fazilati toʻgʻrisida shunday yozadi.

Odamiylik debochasi odob ekan,

Odob kishi hayotida aftob ekan.

Kimda odob mayus boʻlsa, dili majrux.

Baxtli koʻlsam saodati betab ekan.

⁴ Абдулла Авлоний “Туркий Гулстон ёхуд ахлоқ” Тошкент. Ўқит.1992 йил 7 бет

Odobli, yaxshi xulqli bo'lish to'g'risida dono xalqimiz tuqigan ko'plab maqol matallar asrlar ancha og'izdan –og'izga o'tib kelmoqda.

Barcha ishdan xulqi xush yaxshi erur. Xulqi xush odamni el izzat qilur

Odobning obro'ying.

Odob –kishining zebu ziynati.

Inson odobi bilan, osmon aftobi bilan va xakozo.

Qayerda, qaysi davrda, qaysi jamiyatda yaxshi xulq qaror topsa, o'sha jamiyatdagi kishilarning hayoti farovon, turmushi tinch odamlari piru bodavlat bo'ladi. Bizga tiqishtirilgan sovet tuzimi davridagi xalqimiz o'z ajdodlarining, tilidan milliy –madaniy an'analaridan, tilidan milliy madaniy odatlaridan benasib qilib kelingan xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz orasida ilmsizlik, ma'naviy qoshoqlik illatlarini yuzaga keltiridiki, bu ko'p hollarda o'zining noxush achiq mevasini bermoqda, bu boy milliy tariximizdan kam xabar yoshlarimiz orasidagi ilmsizlik axloqsizlik, qo'pollik, qurchlik, ma'naviy qoshoqlik kabi illatlarning ildizi bevosita yuqoridagi holatlarga borib taqaladi.

Shunday ekan, xozir jamiyatimiz mustaqillikka erishgach va o'z istiqlolini tiklayotgan bir vaqtda, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni muvofaqqiyatli hal etish ko'p jihatdan biz yashab turgan jamiyatning va undagi har bir shaxsning axloq darajasiga bog'liq.

Buning uchun dono xalqimiz mutaffiklarimizning durdona fikrlariga rioya qilib, yoshlarimizga bolalikdan boshlab ajdodlarimiz tomonidan qo'llab kelingan eng xalqchil odob na'munalarini o'rgatib borishimiz zarur.

Tarbiyani yoshlikdan boshlash zarurligini barcha mutafakkir olamlarimiz ta'kidlab kelishgan. Juladan, buyuk mutafakkir Abu Shukur Balxiy bola tarbiyachi yoshligidan boshlanashi kerakligini shunday ta'riflaydi:

Yoshlik chog'ida o'rganish bilan

Aql ham idrok topishing oson

Hoxlagan tomonga egib qo'yadi.

Nixolligida daraxatni bog'bon

Qiyshig'ini hyech kim tug'irilay olmas.

Nihol ulg'ayib, bo'lgan yug'on.

Qadim –qadimdan ilmi kishilar jamiyatning eng obro' kishilari hisoblanganlar shu bilan birga, limli bo'lish odob –axloq qoidalarini egallash bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirib borilgan. Aksariyat odob har qanday bilimdon yuqori qo'yilgan va bu hal bola tarbiyasida, uning kelajak jamiyatga munosib kishi bo'lib yetishishda o'zining juda yaxshi samarasini bergan. Pedagogika fani ham bolani har tomonlama tarbiyalashda muhim vazifalardan biri deb hisoblaydi. U bolalarga aqliy tasavvur va bilimlarni singdirish ularga shaxsning aqliy his –tuyg'ulari va sifatlarini, ijobiy ma'naviyatini tarbiyalash zarur deb qaraydi.

Bolalarni aqliy tarbiyasiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samaraliroq bo'lishi uchun har bir yosh bosqichi ruhiyatini yaxshi bilish kerak. Psixolog va pedagog olimlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasi bolalarda aqliy rivojlanish juda erta boshlanishni ko'rsatadi: bola hayotining birinchi oyidayoq kattalar u bilan gaplashganda quvonib ketadi. Bog'cha yoshida kelganda kattalar bolani yaxshi parvarish qilsalar, u kattalarga mehr qo'yadi.

Tadqiqot ishlari natijasi shuni ko'rsatadiki bola 2 -3 yoshda kirgandayoq unda uyatchanlik, mustaqillik yoki o'ziga ishonchsizlik, xudbinlik yosh g'amxo'rlik, o'z tengdoshlariga e'tibor bilan munosabatda bo'ilsh kabi shaxsiy xususiyatlar namoyon bo'la boshlaydi.

Bir qancha olimlarning ta'kidlashicha katta gurux bolalari hozir javoblik xayrixohlik va haqqoniylik kabi aqliy xislatlarni egallab olar ekanlar. Shu bilan birga, ular boshqalarning iztirob chekayotganiga ko'pincha befarq bo'lar ekanlar shunday hislarni ular anglab yetalmas ekanlar.

Bolalar ijtimoiy hayot voqyea –hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar to'g'risidagi eng oddiy bilimlarni egallab olishlari ularda dastlabki vatanvarlik va baynalminallik hislarni tarbiyalashga asos qilib xizmat qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshining o'ziga xos tomoni shundaki, bu yoshda bolalar hali aqliy tushuncha yoki xulqni so'z bilan aniq ta'riflab beromaydilar uni boshqa ushnacha o'xshash voqyealar bilan solishtira olmaydilar. Ammo bolalar bog'chasidagi to'g'ri

tosh etilgan pedagogik jarayon aqliy vofqyealarning umumiy ma'nosini anglab olishga yordam beradi. Agar bolalar boshqalarda yaxshi xulq na'munalarini ko'rsalar, o'zlari ham ularga uxlashga xarakat qiladilar.

Aqliy tarbiyaning g'oyaviy asosi uning maqsadi, vazifasi va prinsipni belgilaydi ruxiy pedagogik asosi esa bolalar bog'chasida aqliy tarbiya berishning aniq vazifasi va mazmuni vositalari va metodini va shuningdek pedagogik shart –sharoitni belgilab beradi. Aqliy tarbiya jismoniy, aqliy, mehnat, estetik tarbiya bilan va bolalarning o'z faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

“Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning mazmuni va metodlari bu yoshdagi bolalarning xususiyatlariga mos kelishi va u eng yaqin vaqtdagi aqliy rivojlanish zonasini ko'zda tutish kerak”⁵

Agar to'rt yoshga qadam qo'ygan bolalar o'z tengdoshlariga asosan tarbiyachining maslahati, ko'rsatmasi ta'sirida baholi qudrat yordam ko'rsatsalar, besh yoshga to'layotganda bunday yordamni o'z xoxishlariga ko'ra ko'rsatishlari lozim. Tabiiyki xulq atvorning ana shu yanada yuksak pog'onasiga tayyorgarlikni oldindan boshlash kerak.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar aqliy trabiyasining vazifasi hamda mazmuniga muvofiq uning pirinsiplari ishlab chiqilgan.

⁵ “Болалар боғчасида ахлоқий тарбия” тарбиячилар учун қўлланма. Тошкент. Ўқит.1990й 12 бет

Bolalar bog'chasida aqliy tarbiya berish turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Avvalo bolalarni har –xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnat bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda ta'lim berish: kun davomidagi maishiy faoliyatda; mustaqil badiiy faoliyatda ko'ngil ochishlarda qatnashtirish orqali bu ish hal etiladi.

Har –xil bayramlar, san'at vositalari ijtimoiy hayot voqyealari; bolalar badiiy adabiyoti, musiqa, ashulla, tasviriy va amaliy san'at; o'yinchoq va o'yin materiallari; ommaviy axborot vositalari, aynan jaxon va radoi, kino va diafilmlar dionazitivlar va boshqalar bolalarning aqliy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu hamma keng vositalardan keng ravishda ma'lum izchillik va sistemalilik bilan foydalangandagina bolalarning aqliy tarbiyasiga samarali ta'sir etish mumkin. Masalan kichik yoshli bolalar aqliy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan aqliy tasavvur va tushunchalarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari dastlab mashg'ulotlarda yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan aqliy tasavvur va tushunchalarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari daslab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin mehnat yaxshi yo'lga qo'yilgan kun tartibidagi ayram tadbirlarda, sayr va ekskursiyalarda, shuiingdek bolalarning mustaqil faoliyatlarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini har tomonlama kamol toptirish uchun pedagog va olimlarimiz tomonidan dastur yaratildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, MAKTABGACHA YoShDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI- 2008 yil 28- sentyabrda XTV hay'at yig'ilishining 10/4 qarori bilan tasdiqlandi. Bu Davlat talablarini amaliyotga joriy etish zarurati "BOLAJON" tayanch dasturini ishlab chiqishga sabab bo'ldi.

"Bolajon" dasturining maqsadi

"Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"ning bajarilishiga erishishdan, ya'ni maktabga jismonan sog'lom, aqlan va ma'nan yetuk, jamiyatning turli a'zolari bilan muloqotda bo'la oladigan, borliqni aniq idrok etadigan, hayotga ijtimoiy jihatdan moslashuvchi, umummilliy qadriyatlarimizni qadrlaydigan, shuningdek, mustaqil va ongli yashaydigan bolani tayyorlashdan iborat.

Dasturning vazifasi

Bolalarni jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog'lig'ini muhofaza qilish; bolalarning erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ahloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Dasturda bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash davri shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

-  Go'daklik (1 yoshgacha)
-  - Ilk yosh (1-2 yosh)
-  - Ilk yosh (2-3 yosh)
-  - Kichik yosh (3-4 yosh)
-  - O'rta yosh (4-5 yosh)
-  - Katta yosh (5-6 yosh)
-  - Maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh)

Dasturning tuzilmasi

-  1.Bolalarning rivojlanish xususiyatlari
-  2.Jismoniy rivojlanish
-  3.Mashg'ulotlar jadvali (haftalik, oylik, 1-yarim, 2-yarim yillik

va

-  jami)
-  4.Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
-  5.Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik
-  6.Bilish jarayoni: atrof olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va

uni anglash

 Ushbu dasturning muqaddima qismida ta'lim-tarbiya maqsad, vazifalariga mos bola shaxsini jismoniy rivojlantirish, nutq va tafakkurini o'stirish, ma'naviy shakllantirish va ularni maktabga tayyorlash maqsadlari yoritilgan.

 Yangi takomillashtirilgan dasturning maqsad, vazifasi bugungi Davlat va jamiyat boshqaruvining erkinlashuvi sharoitida, fuqarolik jamiyatining bo'lg'usi shaxslarini barkamol qilib kamolga yetkazishga bo'lgan talab va ehtiyojini qondirish, amaldagi “Uchinchi mingyillikning bolasi” tayanch dasturining samarali mazmun-mohiyatini saqlab qolgan holda, maktabgacha yoshdagi bolalarni yangi Davlat talablari asosida tarbiyalashga qaratilgan.

 Dastur mazmuni bolalarda ilk bora milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish, milliy urf-odatlar, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtiromni kuchaytirish maqsadini ko'zda tutadi.

 Ushbu dastur O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi YuNISEF xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda o'tkazgan uch bosqichlik tajriba-validasiya sinovlaridan samarali o'tgan.

 Tayanch dastur to'plam shaklida chop etilgan bo'lib, unga «O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risida”gi,

“O‘zbekiston Respublikasida Davlatga qarashli bo‘lmagan maktabgacha bolalar muassasasi to‘g‘risida”gi Nizomlar, “Maktabgacha yoshdagi bolalar ta‘lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan Davlat talablari” kabi me‘yoriy hujjatlar ham kiritilgan.

 Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim sohasining barcha yo‘nalishlari ushbu me‘yoriy hujjatlar bilan ta‘minlanganligi va ular XTVning elektron saytlarida yoritilganligi bois, yangi tayyorlangan takomillashtirilgan nashrga ushbu hujjatlar kiritilmadi.

 Amaldagi dastur me‘yoriy hujjatlar bilan birgalikda

 5 bosma taboq hajmda nashr etilgan.

 Yangi tayanch dastur yaxlit holatda, to‘ldirish va qo‘shimchalar bilan aynan 12 bosma taboqni tashkil etadi.

 Dasturda ta‘lim-tarbiya mazmuni 3 yo‘nalish 6 bosqichda amaliyotga tavsiya etilgan:

 Bolalarni jismoniy rivojlantirish;

 Nutq va tafakkurni rivojlantirish;

 Ma‘naviy-madaniy yetuklik.

 Yangi taomillashtirilgan tayanch dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarga 4 yo‘nalish 3 bosqichda ta‘lim-tarbiya berish maqsadini ko‘zda tutgan:

 1. Jismoniy rivojlantirish, o‘z-o‘ziga xizmat va gigiyena;

 2. Ijtimoiy-hissiy rivojlantirish;

 3. Nutq, o‘qish, savodga tayyorgarlik;

 4. Bilish jarayoni, atrof-olam to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lish va uni anglash

 Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlar uch yoshgacha bo‘lgan davr, uch yoshdan besh yoshgacha va besh yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar psixik va yosh xususiyatiga ko‘ra bir-biriga yaqinligini ilmiy

asoslagan. Tahlillarga tayanib, yangi dasturda tug'ilgandan 24 oygacha bo'lgan rivojlanish davrlari (ilk yosh) oylar kesimida, I kichik (2-3 yosh), II kichik (3-4 yosh), o'rta (4-5 yosh), katta (5-6 yosh), maktabga tayyorlov (6-7 yosh) qilib belgilandi.

Shunga e'tiboran bolalarni aqliy tarbiyalashda asosiy vosita bu mashg'ulotlar jarayonidir. Biz tadqiqotimizda nutq o'stirish, bilish jarayoni, atrof olam to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish va uni anglash to'g'risida ta'xtalamiz.

Dastur to'g'risida g'uyoidagi xulosalarni bildiramiz:

1. Yangi takomillashtirilgan dastur tuzilishi jihatidan tarbiyachiga kundalik ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda bir qator afzalliklar yaratadi (Matn lo'nda, aniq, alohida yo'nalishlar bo'yicha berilgan);

2. Zamonaviy pedagogik-psixologik terminlardan foydalanilgan (M-n, "Ekspressiv" so'zi - lotincha "ifodalanganlik" ma'nosini anglatib, o'z his-tuyg'ularini nutq orqali ifodalash malakalariga ega bo'lish, "Impressiv" – o'zgarlar nutqini eshitish va eshitilgan nutqni tushunish malakalariga ega bo'lishni bildiradi.)

3. Barcha vazifalar bola shaxsini bevosita tarbiyalashga qaratilgan;

4. Milliy ruh va ma'naviyatga alohida urg'u berilgan;

5. Dastur ta'limiy o'yinlar majmui bilan boyitilgan;

6. Bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tasviriyl faoliyat va musiqa bo'limlari keng yoritilgan;

7. Dasturda umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun joriyl etilgan Davlat ta'lim standartlari o'rtasida uzviylk tamoyillariga alohida ahamiyat berilgan.

Biz quyida "Bolajan " dasturida bolalrning aqliy rivojlanishiga qo'yilgan talablarni sxema asosida keltiramiz:



Aqliy tarbiyaning vazifalari. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyalashning rolli kattadir. Bolalarning bilimlarni egallab olishlari, ularning aqliy faolligini rivojlantirish, mustaqillik, aqliy malaka va ko'nikmalarni egallab olishlari ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi va bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
2. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish; sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq.
3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.
4. Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish.

1.2. Aqliy tarbiya va ta'lim tushunchasining mazmuni va ahamiyati.

Aql keng ma'noda sezish va idrok etishidan boshlab to tafakkur va hayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir.

Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi (masalan, kattalarda mehnat faoliyati, bolalarda o'yin, o'quv faoliyati).

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak –atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otishni, aqliy malaka va ko'nimklarni tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli ayniqsa kattadir. Bilimlar zahirasini egallash, aqliy faoliyatni va mustaqillikni rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirish maktabda muvaffaqiyatli o'qish va bo'lg'usi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartlaridir.

Bolalarning 6 yoshdan boshlab maktabda o'qishga o'tishi munosabati bilan ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanishi yetarli darajada bo'lishini ta'minlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi. Aqliy kamolot –bu yoshning o'sib, tajribaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar ta'sirida bolaning aqliy faoliyatida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha tarbiya yoshida bilim tez sur'atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Tevarak atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan birga tarkib topgan tushunchalar sistmeasini o'zlashtiradi. Natijada

maktabgacha tarbiya yoshidayoq bola tilni shunchalik egallab oladiki, undan muomala vositasi sifatida erkin foydalana oladigan bo'lib qoladi.

Aqliy rivojlanish fikrning kengligida voqyealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar (rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikasiya, qurish yasash) jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishiga ta'lim va tarbiya samaraliroq ta'sir etadi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlarni hosil qilish uchun zarurbo'lgan bilish faoliyati

usullarini egallab olishni aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari deb hisoblaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlarni va imkoniyatlarini bilish kerak. Aqliy tarbiyaning vazifasi uining mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etish (bir tomondan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, bola organizmning umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha nargruzka bo'lmasligi) yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Olimlar aqliy rivojlanish va aqliy tarbiyaga oid ko'ngil masalalarni tadqiq qilmoqdalarki, bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar aqliy tarbiyachining asosi bo'lgan sensor tarbiyaning mazmuni va metodini ishlab chiqish uchun zarurdir, bolalarning ko'rgazmali –harakatli, ko'rgazmali –obrazli va tushunchali –mantiqiy tafakkurini shakllantirish tadqiq etilmoqda, ularning bilish qobiliyatlarini shakllantirishning o'ziga xos tomonlari aniqlanmoqda.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik –pedagogika tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bularning hammasi maktabgacha

tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak –atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi, voqyealardagi muhim va muhim bo'lmagan tomonlarni ajrata oladigan, ba'zi bir sabab –natijali bog'lanishlarni bilib oladigan bo'lib qoladilar, ularda o'quv faoliyatining daslabki kurtaklari shakllanadi. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shu sababli pedagoglarning vazifasi – bolaga muayyan maqsadga ko'zlab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir.

Maktabgacha tarbiya yoshi davrida bola har kuni o'zi uchun notanish bo'lgan narsa va hodisalarga duch keladi. L.N.Tolestoy maktabgacha tarbiya yoshi haqida shunday deb yozadi: “Men hozirda o'zimda bor bo'lgan hamma narsani o'sha yoshlik chog'imda egallab olganmanki, egallaganda ham sho'unchalik ko'p, shunda egallab olganmanki, egallaganda ham shunchalik ko'p, shunda egallab olganmanki, egallagan narsamning yuzdan birini ham egallaganim yo'q. Besh yoshli boladan mengacha atigi bir qadam. Yangi tug'ilgan chaqaloqdan besh yoshli bolagacha esa masofa juda uzoq”.

“...Biroq tegishli rahbarlik bo'lmasa, bilim va tasavvurlar tartibsiz bir tarzda to'planib boradi: ular yuzaki, ko'pchilik holda xato ham bo'lishi mumkin. Bola “bulut – bu paxta”, “yulduzlar –elektr lampochkalari” deb o'ylaydi. Tevarak – atrofdagi hayotni kuzatib, u mustaqil xulosa chiqarishga harakat qiladi. K.N.Chukovchikiyning “Otadvux do pyati” “ikki yoshdan besh yoshgacha”) degan kitobida bolalar aytgan fikrlaridan misollar keltiriladi, bular bola zehning sinchkovligidan dalolat beradi.

“...”pedagogning vazifasi bolalardagi bilimlarni munatazam ravishda oshirib borish, ularni tartibga solish, aniqlashtirishdir.

“Bola tevarak –atrofdagi narsalar, ularning vazifasi, ba’zi sifatlari (rangi, katta –kichikligi, shakli) va xossalarni (sinadi, pachoq bo’ladi, yirtiladi, to’kiladi va hokazo) haqida, qaysi materialdan tayyorlanganligi to’g’risida aniq tasavvurga ega bo’lishi kerak. U tabiat hodisalari, ularning o’zaro bog’liqligi va qonuniyatlari (yil fasllarining o’ziga xos belgilari, ular o’rtasidagi bog’lanishlar, hayvonlar, ular hayoti va yashash tarzining tashqi ko’rinishiga, xulqiga, yashash sharoitiga mosligi va h.k.) ni bilib oladilar. Jonsiz tabiat, o’simliklar, hasharot va hayvonlarni kuzatish jarayonida tarbiyachi bolalarda borliq to’g’risidagi materialistik tasavvurlarni shakllantirib boradi.

Bilimlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi ham shakllanib boradi. Bola san’atning har xil turlari (tasviriy faoliyat, musiqa, adabiyot va h.k.)to’g’risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab oladi.

Mana shu real bilimlarni egallashi natijasida bolada tevarak –atrofni materillistik tushunishning tarkibiy qismlari shakllanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o’zlariga tushunarli bo’lgan ijtimoiy voqyea va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari bilan, respublikamizda yashaydigan ba’zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg’otishga, Vatanga muhabbat tuyg’ulari va baynalminalchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi.

Aqliy tarbiyaning ruhiy va fiziologik asoslari. Bola har doim buyumlar va hodisalar orasida bo’ladi, doimo biror bir narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko’radi, hidlaydi, totib ko’radi, nimagadir quloq soladi. Shu tariqa bola dunyoni bilib boradi. Tevarak –atrofdagi buyumlar, tabiat bolaning sezgi organlari (ko’z, quloq va hokazolar) analizatorlariga ta’sir etadi va sezgi hosil qiladi. Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim hossalari: sovuq issiq, g’adur – budur, silliq –yaltiroq, xushbo’y va hokazolarni bilib olishda yordam beradi.

Sezgi atrofidagi muhitni bilishning daslabki bosqichi hisoblanadi. Bola sezgi tufayligina tevarak –atrofdagi narsalar to’g’risida bilish tajribasini to’plab borishi mumkin.

Idrok ancha murakkab ruhiy jarayon bo'lib, sezgilar asosida hosil bo'ladi. Bola olmani qo'lida ushlab ko'rib, qarab chiqib va yeb ko'rib, uni yaxlit bir buyum, ayni bir vaqtda dumaloq, qizargan, xushbo'y, mazali va hokazo tarzda idrok qiladi. Bola olmani yaxlit bir buyum tarzida tasavvur qilishi uchun birdaniga bir nechta apalizator –ko'rish, sezish va hid bilish analizatorlaridan foydalanadi.

Analizatorlarining bir vaqtining o'zida birdaniga ishlashi buyumning hossasi va belgilarini aniqroq hamda to'laroq bilish imkonini beradi.

Shuning uchun katta yoshdagi kishilar bolani ilk yoshlik chog'idan boshlaboq aqliy jihatdan to'g'ri tarbiyalash maqsadida buyumlarni ko'proq analizatorlar yordamida irok qilishga imkon tug'dirishlari, analizatorlarning rivojlanishiga, ya'ni bolaning sensor madaniyatiga aloxida e'tibor berishlari kerak.

Tushunchalar, ilmiy g'oyalar, tevarak – atrof hayot va uning hamma boyligi, uning har xil ko'rinishidagi bilimlar, faktlar yosh avlod o'zlashtirib olish lozim bo'lgan bilimlar jumlasiga kiradi. Bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalaridan o'zlarning har xil faoliyatida, mehnatida yaxshi foydalanish-bilishning haqiqiy yo'lidir.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarda bilishning umumiy qonuniyatlari uning bilish faoliyatida borliqni bilib olishdan namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon psixologiyasining erishgan natijalari shuni ko'rsatdiki, bolaning tafakkurini ko'rgazmali-xarakterli, ko'rgazmali-obrazli va so'z-mantiqiy yo'li bilan shakllantirish kerak. Bu degan so'z, bolalarni avvalo ko'ra oladigan, seza oladigan buyumlar bilan tanishtirib, keyinchilik tasavvur shakllariga o'tish mumkin ekan. Metod va usul tanlashda xam yuqoridagilarga rioya qilish zarur. Shuning uchun xam ilk va bog'cha yoshdagi sensor tarbiya aqliy tarbiyaning muhim bo'limi xisoblanadi.

Bola nutq paydo bo'lishidan ancha oldin (bolalar bir yoshga to'la boshlaganda birinchi bor gapira boshlaydi) u tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar dunyosini katta yoshdagi kishilar yordamida bilib oladi.

Ona bolasiga o'yinchoqni uzatar ekan: (“Mushukchani ol”,-deydi.).bola qo'lini cho'zib uni oladi. Bolaning ko'rib idrok qilishi (u o'yinchoqni ko'rib

turibdi) eshitish bilan qo'shiladi (bola onasining o'yinchoqni nima deb aytganligini eshitadi), hissiy idrok bilan so'z o'rtasida o'zaro ta'sir sodir bo'ladi. Agar ona "mushukchani ber", "mushukchani olib kel" deb bir necha marta takrorlasa, bola muayyan o'yinchoqning nomini yaxshi eslab qoladi. Pirovardida "mushukcha" degan so'z bola hayolida ma'lum bir buyumni hosil qiladi.

Bolalarning tushunishi va ularda nutqning paydo bo'lishi ularning aqliy jihatdan o'sishining ancha yuksak bosqichidir.

Bola buyumni o'zi ko'rib, ushlab turgandagina emas, balki buyum to'g'risida katta yoshdagi kishilar gapirib berganda ham bilib oladi. Bu bilish jarayonini ancha tez, chuqur va qiziqarli jarayonga aylantiradi.

Ona tilidagi so'zlarni egallash va so'z ma'nolarini asta-sekin tushunib borish maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning aqliy jihatdan rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Ulug' rus fiziologi I.M.Sechenov bunday deb yozgan edi: "Bola gapirishning o'rganib olgandan keyin unda tevarak-atrofdagi narsalarga qiziqish va ularni bilishga intilish oshib boradi, bu hol bolaning onasiga: nega stol yurmaydi-yu, quyosh esa oyoqsiz yuradi, kechkurun u qayerga yashirinadi, nima uchun shamol g'uvullaydi?"- kabi savollar berishga sabab bo'ladi".

Bola 3 yoshga to'lganda undagi so'z zapasi 1200 -1500 taga yetadi. Bola katta yoshdagi kishilar unga nima haqida gapirayotganlarini yaxshi tushunadi. Bu katta yoshdagi kishining nutqidan har tomonlama tarbiyalashning kuchli vositasi tarzida foydalanish imkoniyatini beradi. Bola atrofdagilarning nutqini qanchalik yaxshi tushuncha, tarbiyachining so'zi bolalar bilan olib boriladigan ishlarda shunchalik ko'p o'rni egallaydi.

Ikkala signal sistemasi, ya'ni hissiy idrok bilan so'zning o'zaro aloqala bo'lishi aqliy rivojlanishning asosini tashkil etadi.

Kattalar nutqini tushunish bolalar bilim doirasining kengayishiga imkon beradi, eng oddiy aloqa va munosabatlarini tushunishlariga hamda 6-7 yoshlarga kelib ba'zi bir mavhum tushunchalarni (balandlik, do'stlik va hokazolarni) egallab olishlariga yordam beradi.

Dastlab bolada faqat ixtiyorsiz diqqat rivojlanadi (u diqqat e'tiborini qiziqarli narsalarga qaratadi). Keyinchalik muntazam ravishda tashkil etib, amalga oshirilgan ta'lim –tarbiya ishlari natijasida ixtiyoriy diqqat tarkib topib boradi.

Bola kattalarning topshirig'ini, uyda va bolalar bog'chasida o'z –o'ziga xizmat ko'rsatishga doir ba'zi bir ishlarni tartib bilan bajarib borishi natijasida endi u o'zini unchalik qiziqitirmaydigan, lekin topshiriqni yoki bolalar jamoasining talablarini bajarish uchun zarur bo'lgan ishlarni ham bajarishga odatlanib boradi.

Dastlabki vaqtlarda bolaning diqqati beqaror bo'ladi. Shuning uchun katta yoshdagi kishilar bolalarning faoliyatini yo'lga qo'yishi va topshiriqlarni aniq belgilab berishi kerak. Shunday qilinganda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirib borishga sharoit yaratiladi.

6-7 yoshlarga kelib, bolalarda o'z diqqatini mustaqil suratda to'plash malakalari hosil bo'ladi, lekin ular diqqatni uzoq vaqt bir joyga qarata olmaydi. Shuning uchun bolalarning mashg'ulot, o'yin, dam olish, ovqatlanish va uxlash vaqtlarini to'g'ri taqsimlash zarur.

Bolalarning aqliy jihatdan o'sishida xotira katta ahamiyatga ega. Xotira inson hayotdan muhim rol o'ynaydi. Bola tug'ilganida hych narsani bilmaydi va hych narsa qilolmaydi. U rivojlanishning bormuncha yuqoriroq darajasiga ko'tarilib, biron bir foydali ish qilish uchun ko'pgina bilim va malakalarni eslab qolish va xotirasida saqlashi lozim.

Xotiraning rivojlanishi bolaning hayot sharoitlariga uning ta'lim va tarbiyasiga bog'liq. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi ko'pincha beixtiyor tarzda bo'ladi, bunda bola buyumlarni amaliy mashg'ulotlar yoki o'yin o'ynash jarayonida o'z –o'zidan esda saqlab qoladi.

Maktabgacha tarbiya yoshida beixtiyor esada olib qolish bilan birga ixtiyoriy eslab qolish kurtaklari ham paydo bo'la boshlaydi. Bu o'zgarishlar, bolalar faoliyatining murakkablashuvi kattalar talabining ortishi natijasida ro'y beradi. Masalan, kattalar boladan biror topshiriqni hozir emas, balki bir qancha vaqtdan keyin bajarishni talab qoladilar (buning uchun topshiriqni ixtiyoriy ravishda eslab qolish kerak) yoki bir necha kun oldin (masalan, sayr vaqtida, dam olish kuni

uyda) nima bo'lganligini aytib berishni taklif qiladilar, buning uchun esa o'sha arsalarni yodga tushirish lozim.

Bola jamoa tarzidagi o'yinlar va mashg'ulotlarda qatnashar ekan, u tevarak – atrofdagi kishilar talab qilgan, tarbiyachi ko'rsatgan narsalarni eslab qolishni o'rganadi. Ruhiy faoliyatning maxsus shakli – hayol maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Hayol bolaning hayoti jarayonida uning faoliyatida, ta'lim va tarbiya ta'sirida tarkib topadi.

Bolaning hayoli u syujetli o'yinlar o'ynay boshlaganida, ularga kattalar qiziqarli ertaklar aytib berganida, o'sha ertaklarga qiziqish orqali xayolning ko'proq konkret vaziyatga bog'liq bo'ladi (masalan, qo'g'irchoq ko'rinib qolsa, uni uxlatadi, mashina bo'lsa, biror narsani tashiydi va hokazo).

Katta bog'cha yoshiga kelganda bolaning tajribasi ortib, faoliyati murakkablashadi va buning natijasida bola xayolida sezilarli o'zgarish yuz berayotganini kuzatish mumkin. Bola ko'rganlari, eshitganlari, ishlagan rasmlari, buyumlari to'g'risida maroq bilan anchagina yaxshi hikoya qilib berishi mumkin. Bolalarning bunday hikoyalari faqat real borliqni aks ettirib qolmay, balki endi ularni ijodiy boyitib, hatto o'zgaritirib ham hikoya qilib berishlari mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xayolini rivojlantirish ularni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish. Bilishga doir ruhiy jarayon – sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, shuningdek, nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.

Tevarak –atrofni bilish sezgi va idrokdan boshlanadi. Ularning rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, borliqni bilib olish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. Shuning uchun bolalar bog'chasida sensor tarbiyaga katta e'tibor beriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni rivojlantirish alohida rol o'ynaydi. Inson o'z fikrlarini ifodalash va boshqalarning fikrlarini tushunish uchun ona tilidan foydalanadi. Nutqni egallash bolaga bevosita va bivosita (hikoya, badiiy asar, tarbiyachining tushuntirishi va h.k.) yo'l bilan borliq haqida bilimlar hosil qilishga imkon beradi. Bolalar bog'chasida lug'at boyligini oshirish, so'zning

grammatik tuzilishini shakllantirish, bog'lanishli nutqni rivojlantirish vazifalari hal etiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ongli ravishda eslab qolish qobiliyati tarkib topadi, xotira hajmi kengayadi; vazifa –ixtiyoriy diqqatni mashq qildirish, uni foydali bilimlar bilan boyitishdan iborat.

Hayol ijodiy faoliyat uchun zarurdir, shuning uchun uni boshcha yoshidan bolab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha tarbiya yoshining daslabki bosqichlarida bolalarda tasavvur hayoli bo'ladi, hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy hayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bola uchun ko'rgazmali –harakatli, ko'rgazmali –obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik – sintetik tafakkur faoliyatini tarkib toptiradi, bu esa hodisalarni, voqyealarni chuqur anglab olish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan tomonlarni ajratishga o'rgatadi.

Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak –atrofdagi voqyea va hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab, paysaplab, yurgizib, harakatga keltirib ko'rishida, qiziqtirgan narsasini diqqat bilan tomosha qilishi va kuzatishida namoyon bo'ladi. Bolaning savollaridan undagi qiziquvchanlik qay darajada ekanligini aniqlab olsa bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularning fikrini mustaqil javob berishga harakat qiladi, ularning fikrini mustaqil javob qidirishga yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Bolalar bog'chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi turibdi. Psixologiyada ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli egallab olish uchun shart –sharoitlar yaratadigan shaxsiy xususiyatlarni qobiliyat jarayonida

namoyon bo'лади va rivojlanadi. Insonning aqliy qobiliyati aqlning ziyraklik –fahm –farosatlilik (aqliy reaksiyaning tezligi), tanqidiy ko'z bilan qarash (fakt, hodisa, mehnat natijalarini xolisona baholash va ularni tahlil qilish, xatolarni payqash qobiliyati va hokazo), sinchkovlik (aqliy vazifani hal etish yo'llarini izlash, to'g'ri javob qidirish uchun turli usullardan foydalanish qobiliyati), sermulohazalilik kabi sifatlari bilan ajralib turishi mumkin.

Shunday qilib, tarbiyachi bolalarda aqliy sifatlarni rivojlantiruvchi faoliyatlarni tashkil etib borishi kerak. Bolalarda ziyraklikni o'stirish uchun tez javob qaytarishni talab etadigan o'yinlarni tashkil etadi ("Keyingi sonni ayt", "aksini ayt", "uchali uchmaydi" va boshqalar); tanqidiy qarash qobiliyatini rivojlantirish uchun bolalarni tengdoshlarining ishini, javobini tahlil qilishga jalb etadi; sinchkovlikni rivojlantirish uchun eng oddiy tadqiqotchilik ishlarini tashkil qiladi, jumboqli masalalar yechishni taklif etadi.

Aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish, boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaning bilimlarni muvaffaqiyatli egallab olishiga yordam beradi. Masalan, o'simliklar yoki hayvonlar bilan tanishtirish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim konkret o'simliklar yoki hayvonlar to'g'risida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar. So'ngra bolalardagi aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan quyidagi mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirishi mumkin: masalan, "paxta o'simliini momoqaymaq o'simligi bilan solishtirish", "Qafasdagi ikki xil qushni bir –biriga solishtirish", "Qo'yni echki bilan solishtirish" yoki "Tasviriga qarab top" didaktik o'yini va shunga o'xshash tadbirlar o'tkazish. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmasdan, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanishga o'rgatishi zarur.

Ilk va bog'cha yoshi davrida bolalarda tevarak- atrofga bo'lgan qiziqish juda tez o'sadi. Qiziqish –bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. Kattalar bolalarning qiziquvchanligini, bilishga bo'lgan har qanday xohishini sezishlari va rag'batlantirib borishlari kerak.

Bolalardagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligi – bolaning aqliy rivojlanganligining asosiy ko'rsatkichidir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Aqliy tarbiya kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak –atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otishni, aqliy malaka va ko'nimklarni tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

1.3. Sharq va g'arb mutafakkirlarining qarashlarida aqliy tarbiyaning ifodalanishi.

Ta'lim –maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatlarini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi, chunki ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. Bog'chada bolalarga madniy –gigiyenik ko'nikmalar, asosiy harakatlar o'rgatiladi, ular madaniy axloq qoidalarini o'zlashtirib oladilar, ularda axloqiy sifatlar, mehnat, tasviriy, konstruktiv, musiqa faoliyatiga oid malaka va ko'nikmalar tarkib toptiriladi.

Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyati asoslari hosil qilinadi, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun muhim shart –sharoitlar yaratiladi.

Hayot ta'limning ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Birinchi yo'l –bolalarning bilim, malaka, ko'nikmalarni kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi orqali egallab borishidir. Bu muomala, mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi. Ammo bu yo'l bilan egallangan bilim va malakalar bolalarning hayotining har xil sohalarida mustaqil qatnashga olishi uchun imkoniyat yaratmaydi.

Ta'limning ikkinchi yo'li –maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan rejali ravishda xabardor qilib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh

avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy –siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.

Oллоh taolo oyati karimasida: “Bilgil, Oллоh yakkayu yagonadir”, -degan soʻzni “bil” degan soʻz bilan boshlagan.

Muhammad paygʻambar oʻz hadislarida “Ilmga ilm olmoq yoʻli bilan jrishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoydan boʻlsa, ham oʻrganinglar.. Ilm egallang! –Ilm sahroda doʻst, hayot yoʻllarida –tayanch, yolgʻiz damlarda –yoʻldosh, baxtiyor daqiqalarda –rahbar, qaygʻuli oilalarda –madadkor, odamlar orasida –zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda –quroldir”, deganlar.

Qurʻon karim oyatlaridan birida: “Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilgaysan, deb ayt!” –deyladi.

Insoniyat paydo boʻlgandan beri odamlar ichidan yetishib chiqqan barcha ulamoyu –fuzalolar, olimu fozillar, shoiru yozuvchilarning barchasi oʻz davrining nufuzli, hurmatli, eʼtiborli kishilari darajasiga mkammal ilm egallash orqali erishganlar. Abu Nasr Farobiy, Mahmud Qoshgʻariy, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Abu Abdullo Rudakiy, Abu Shukur Balxiy, Isʼhoqxon Ibrat, Siddiqiy ajziy, Saidrasul Aziziy, Muhammad Sharif Soʻfizoda, Abdulrashidov, Toshmuhammad Qori Niyoziy va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar va yangiliklar yaratganlar, shu bilan bir qatorda boshqalarni ham ilm egallashga chaqirganlar. Oʻzbek yozuvchisi, shoir, dramaturg Hamza Hakimzoda Niyoziy barchani ilm egallashga chaqiradi:

Har murodu maqsadingg yetmoq istarsan murod,

Koʻz ochib bedor boʻl, darkor ilm, darkor ilm

Sharq mutafakkirlaridan Aba Abdullo Rudakiy, Abu Shukur balxiylar ham xalqni ilm olishga chaqirganlar, jumladan Rudakiy ilmning buyuk kuchini shunday taʼriflagan.

Odamlar aqlining charogʻi ilm,

Balodan saqlanish yarogʻi bilim

Abu Shukur balxiy esa bilim egallashning zarurligini quyidagi she'riy misra bilan shunday ta'riflaydi:

Hayotdan o'rganib saboq,

O'stod ham, shogird ham hyech bilmas no'choq.

To'qish –yigirish ham bilim birladir,

Dunyoni topish ham bilim birladir.

O'z zamonasining bilimdon kishilaridan bo'lgan Sandrasul Aziziy buun kuch g'ayratini yoshlarga dunyoviy bilimlar berishga bag'ishladi. U o'zining “Ustozi avval” (darslik tarzida tuzilgan) asarida yoshlarni ilm egallashga, odob, axloq egasi bo'lishga, mehnatga chaqiruvchi ko'plab hikoyalar, maqol, matallarni keltirib o'tadi. Kitobdagi hikoyalar, maqol, matal va she'rlarning ko'pchiligini Aziziy o'zi yaratadi, ularyoshlarni ilm olishga chaqiradi.

Kitobga kiritilgan “Ko'p bil, oz so'zda”, “Ilmsiz aql, yengsiz kiyim”, “Xat yozmoq –yarim ilm” kabi maqollar shular jumlasidandir.

O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmi bo'lishga chaqiradi. U aql va ilmni ulug'laydi hamda “Aql insonlarning piri komili, murshidan yagonasidur. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir..” deb yozadi.

Muallif o'z fikrini yanada aniqroq va ravshanroq anglatish uchun shunday muhoyasa keltiradi.

“Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidan qiladurg'on zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq va tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inosn..aql va idroki soyasida o'ziga keladurg'on zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni bergan insonlarning aqlidur”, “Hukamolardan biri: “har narsa ko'paysa, arzon bo'lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur”, - demish.

Avloniy ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najoti, deydi. Shu bilan birga u ana shu fazilatlarni shunchaki qayd etmaydi, uning aniq hayotiy, amaliy ahamiyati ustida ham to'xtalib o'tadi. Uning insonni kamolotga yetkaishda bosh

omil ekanligiga dalillar keltiradi. Olimning fikricha, ilm olish riyozat chekishni, sa'y –g'ayratni talab etadi.

“Inson ibrat nazari ila boqub, dunyo kitobindan o'z qadr hissasini bilib olmog'i lozimdur. Ma'rifat sohibi bo'lmay uchun ahvoli olamdan xabardor bo'lmoq kerak. Shuning uchun aql sohiblari, fatonat egalari o'zlariga foydasi bo'lsa bo'lmasa sinchiklab qarag'on narsalaridan biri hissa olmay qo'ymaslar”, - deb yozadi Avloniy. Dono halqimiz o'z maqol va matallarida ham aqlli, ilmli bo'lishga chaqirgan:

Ilm –aql bulog'i

Aql –yashash chirog'i

Ilm baxt keltirar,

Bilim taxt keltirar.

Shu bilan birga dono xalqimiz har bir narsaga, shuningdek ilmga ham yoshlikdan o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi va yoshlikda egallangan bilim toshga bitgan bilan barobardir, deydi.

Aba Shukur Balxiy bilimni yoshlikdan egallash zarurligini o'z she'riy misralarida shunday ifodalaydi.

Yoshlik chog'ida o'rganish bilan

Aql ham idrok topishing oson.

Xohlagan tomonga egib qo'yadi.

Niholligida daraxtni bog'bon.

Qiyshigin hyech kim tug'rilay olmas,

Nihol ulg'ayib bo'lganda yo'g'on.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish g'oyasi birinchi bo'lib chet el pedaggikasida chex pedaggi Yan Amos Komenskiy (1592 - 1670) tomonidan yaratilgan.

Ya.A.komenskiy ona rahbarligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Shu yerda bolalarning yoshini e'tibrga olgan holda kishi o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsaga o'rgatish lozim, dedi.

Yan Amos Komenskiy 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lim dasturini tuzdi. Masalan, u tabiatshunoslik (fizika) suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, o't, qumlar va boshqalar haqida bilim berishi lozimligini, astronomiya, geografiya, optika va boshqa sohalarida bolalar egallab olishlari lozim bo'lgan bilimlar doirasini belgilab berdi. Bolalar bog'chasida beriladigan ta'lim bolalarning maktabda oladigan bilimlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Ya.A.Komenskiy hozirgi kungacha o'zining qimmatini yo'qotmagan "buyuk didaktika"ni yaratdiki, undaoldinga so'rilgan bilimlar sistemasining mazmuni va metodlari har bir bosqich bo'yicha ochib berilgan.

U o'zining "Onalar maktabi" kitobida kichik bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturi hamda metodikasini juda sinchiqlab ishlab chiqqan.

Shu bilan Ya.A.Komenskiy maktabgacha tarbiya pedagogikasining mustaqil fan sifatida ishlanishiga asos soldi.

Shveysariya pedagogik I.G.Pestalossi (1746 -1827) maktabgacha tarbiya didaktikasini tuzishda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishini e'tiborga olish masalasiga katta e'tibor beradi. U maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning tevarak –atrof hayotdagi narsa va hodisalarni idrok etib, o'zlashtirishi kattalar (ona) ta'limi asosida amalga oshirilishi lozim, deydi.

G.Pestalossi tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning asosiy mazmuni maktabgacha tarbiya pedagogikaisning rivojlanishida va bolalarga keyinchalik maktabda sistemali ta'lim berishda asosiy dastur bo'lib xizmat qildi.

Pestalossi nutqni o'stirish, o'lchash, sanoqqa o'rgatish bo'yicha boshlag'ich ta'lim metodikasini ishlab chiqdi. Bu metodikani Pestalossi har bir dehqon ayol ham foydalani oladigan darajada sodda qilib ishlashga urindi.

G.Pestalossining rivojlantiruvchi ta'lim g'oyasini K.D.Ushinskiy yuqori baholaydi va uning kiritgan buyuk yangiligi, deb ataydi.

Onalar tabiatning o'zgarmas va adabiy qonuniyatlarini bilib olib, oilada bolaning hamma qobiliyat va imkoniyatlarini rivojlantirishga asos soladilar, deb ta'kidladi. Pestalossi. Uning shu maqsadda yozgan ikkita kitobi bosilib chiqadi. Bular – 1802 yilda nashr etilgan "Gurtrua o'z bolalarini qanday o'rgatadi", 1803

yilda chiqqan “Onalar uchun kitob” yoki bolalarni kuzatish va gapirishga qanday o’rgatish to’g’risida onalarga “qo’llanma”dir. Bu kitobda Pestalossi bolalar egallab olishlari lozim bilan bog’liqligini taxlil va sintez qila bilish, matematik tasavvur, nutq va real narsalar, buyumlarni idrok eta olish qobiliyatlarini belgilab beradi.

Pestalossi ham Komenskiy kabi axloqiy tarbiyani garmonik tarbiyaning asosi deb hisoblangan.

Nemis pedagogik F.Frebel (1782-1852) maktabgacha tarbiyaning butun bir sistemasini yaratdiki, uning bolalar bog’chasida olib boriladigan ishlarga doir kuchli tomoni ta’lim mazmunida edi.

Ko’zlangan ta’limni amalga oshirish uchun F.Frebel didaktik materialning ajoyib sistemasini yaratdi, kattalar rahbarligida ta’lim berish maqsadida o’tkaziladigan mashg’ulot va o’yin metodikasini, uni ishlatish g’oyasini ishlab chiqdi.

Olimning didaktika sohasidagi g’oyalari barcha mamlakatlardagi didaktikaning keyinga rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatdi.

Rus pedagogikasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim berish masalasiga V.F.Odoyevskiy va K.D.Ushinskiylar ayniqsa katta hissa qo’shdilar.

V.F.Odoyevskiy (1803 -1869) 4 yoshdan keyingi davrni daslabki ta’lim va tarbiya berish hamda maktabdagi sistemalik o’qishga tayyorlashda muhim davr deb hisobladi va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim tarbiya yebrish metodlari, mazmuni ustida zo’r berib ishladi. Bu yoshda “bilimgacha”, “o’qishgacha” bo’lgan ta’lim va tarbiyaning, o’qishning boshlang’ich davri bo’lishi kerak, dedi, shu sababli “alohida bolalar fanini yaratishga” harakat qildi.

V.F.Odoyevskiyning “fangacha fan” ishi bo’yicha yozgan “iriniya bobo” kitobi rus pedagogikasining maktabgacha tarbiya didaktikasidagi buyuk ishi deb haqli ravishda tan olindi. Bunda aqliy tarbiya bosh masala sifatida ilgari suriladi, uni amalga oshirish metodlari ishlab chiqiladi. Bu metodlar ichida “rivojlantiruvchi suhbat” metodi asosiy o’rinni egallaydi.

K.D.Ushinskiy (1824 - 1870) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalash masalasini boshlang’ich sinflarda eng oddiy ta’lim berish masalasi

bilan bog'ladi. K.D.Ushinskiy chet el va Rossiyadagi maktabgacha tarbiya sistemasini tahlil qilib, maktabgacha tarbiya pedagogikasi fani uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan quyidagicha xulosa chiqardi:

1) Bolalar bog'chasida to'laqonli hayot kechirishlari, har tomonlama taraqqiy etishlari lozim;

2) Bolalar bog'chasidagi tarbiyaviy ishni to'g'ri yo'lga qo'yishda tarbiyachi rahbarlik rolini o'ynamog'i kerak.

K.D.Ushinskiy tarbiya va ta'limning umumiy sistemasida maktabgacha tarbiya yoshi davridagi tarbiya va ta'limni muhim bosqich deb hisobladi. U yosh bolalarga ona tilini o'rgatish masalasini ishlab chiqdi. Bolalarni tovush metodi bilan savolga o'rgatish o'sha davrda juda muvaffaqiyatli chiqdi. Uning fikricha, Ona tili, nutqning rivojlanishi tafakkur bilan bog'liq, fikr va nutq birdir, nutq – fikrning so'zdagi ifodasi, nutqning rivojlanishida fikrlash qobiliyatini o'stirish hal etuvchi rol o'ynaydi. Nutqiy fikrdan ajralgan holda rivojlantirib bo'lmaydi.

.D.Ushinskiy bolalarga beriladigan ta'lim didaktik prinsipga asoslanib olib borilganda, ularning ruhiy taraqqiyoti ayniqsa samarali bo'lishini ta'minlaydi, deb ta'kidlaydi. U bolalarga tevarak –atrofdagi hayot, buyum va narsalar, voqyea hodisalar to'g'risida bilim berish uchun “Bolalar dunyosi”, “Ona tili” degan ajoyib asarlarini yaratdi va ular bilan ishlash metodini ham ishlab chiqdi. Pedagog bolalarga shunday savollar beridiki, ularga javob berish orqali bolalar narsa va buyumlarning tashqi ko'rinishi, sifati xususiyatini bilib oladilar (bolalar bu narsalarni tartibga solishga, tasniflashga o'rganadilar): “Quyon sakraydi, qaldirg'och –chi?” “Qurt sirnapib yuradi, mushuk-chi?”, “Mol mo' deydi, ot –chi?” “It vovullaydi, mushuk-chi?” yoki “Siz o'rmonda ko'rgan qushlaringiz nomini aytib bering”, “Bahorla biz tomonga uchib keladigan qushlarni aytib bering” va h.k.

Bolalar bog'chasining tarbiya dasturi K.D.Ushinskiy taklif etgan didaktik prinsipga (yaqindan uzoqqa, oddiydan murakkabga prinsipi).

Taniqli pedagog N.K.Krupskaya bolalarning aqliy tomondan rivojlanishida, nutqni, voqyealar o'yinini, tasviriyl faoliyatni rivojlantirish, shuningdek, tevarak –

atrofdagi borliqqa to'g'ri munosabatni tarkib toptirish uchun bilim muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. U bolalar egallab olishi lozim bo'lgan bilimlar hajmini belgilab berdi. Bular tabiat, jamiyat, kishilar, ularning mehnati, narsa va buyumlar to'g'risidagi bilimlardir. Krupskaya bolalar egallash lozim bo'lgan bilimlar dasturini hamma bolalar o'zlashtirib olishiga erishish lozim, buning uchun bolalarning imkoniyatlarini va ularga ta'lim berish metodlarini o'rganish, ular bilan bog'liq bo'lgan o'yin va mashg'ulotlarni bilish kerak, deydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish masalalarini ishlab chiqishga Ye.I.Tixeyeva salmoqda hissa qo'shdi. U bolalar nutqini o'stirish bo'yicha mashg'ulotlar sistemasini va ularni o'tkazish metodikasini ishlab chiqdi. Tixeyeva bolalarga ta'lim berishda ko'rgazmalilikka asoslanish kerakligini, bolalar faoliyati va falliigini o'yin bilan bog'liq holda olib borish zarurligini uqtiradi. Bolalarga bilim berishda ta'lim muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

L.S.Vigotskiy maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilimlar ma'lum dastur asosida olib borilishi, unda belgilangan bilimlar ma'lum dastur asosida olib borilishi, unda belgilangan bilimlar ma'lum izchillikda amalga oshirilishi zarurligi masalasini birinchi bo'lib oldinga surdi. Ammo bog'cha dasturi maktab dasturidan farq qilishi kerakligini, u bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim rol o'ynashi lozimligini aytadi.

Hozirgi zamon maktabgacha ta'lim nazariyasini yaratishda A.P.usovaning xizmatlari ancha muhim ahamiyat kasb etdi. Olima rahbarligida 1950 yillarda ilmiy –tadqiqot ishlar olib borilib, bolalar bog'chasi har bir yosh guruhining ta'lim –tarbiya ishlari mazmuni belgilandi va ta'lim berishning samarali metod va usullari ishlab chiqildi.

Bu o'tkazilgan ishlar ta'limning tarbiyaviy ishdan fraqini aniq belgilab berdiyu bunda eng muhimi ta'limni bola shaxsining taraqqiy etishida u o'zining ma'lum maqsadga qaratilgani uchun yetakchi rol, o'ynashini ko'rsatib berildi. Endi ta'lim ilgariqday bolalarning rivojlanish darajasimga asoslanmay, balki ularning rivojlanishini amalga oshiradigan vosita bo'lib qoldi.

Endi ta'lim kun tartibiga nimani va qanday o'rgatish kerak, degan masalani qo'ydi. Ta'lim garmonik tarbiyaning asosiy vositasiga aylandi va bolalar bog'chasi didaktikasi masalasi ustida izlanishlar olib borish kerak quloch yoydi.

Endi ta'lim kun tartibiga nimani va qanday o'rgatish kerak, degan masalani qo'ydi. Ta'lim garmonik tarbiyaning asosiy vositasiga aylandi va bolalar bog'chasi didaktikasi masalasi ustida izlanishlar olib borish keng quloch yoydi.

Shu davrda maktabgacha ta'lim didaktikasida metodikalarga ajratish jarayoni amalga oshirildi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish metodikasi, tabiat metodikasi (A.M.Leushina, N.N.Bistrov, E.I.Zalkind, P.G.Samorukova va boshqalar), tasviriy faoliyat metodikasi (Ye.A.Flerina, N.P.Sakulina va boshqalar), ona tilini o'rgatish metodikasi (Ye.I.Tixeyeva, Ye.I.Rodina, R.I.Jukovchkaya va boshqalar), musiqa tarbiyasi metodikasi (N.A.Vetlugina va boshqalar), jismoniy tarbiya metodikasi (M.Yu.Kistiyakovskaya, I.A.Bikova va boshqalar) ishlab chiqildi.

Ta'lim masalasining nazariy jihatdan ishlab chiqilishi, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilimlarning mazmuni, metodi va tashkil etish shakllarining yaratilishi 1962 yilda "Bolalar bog'chasi tarbiya dasturi"da "Mashg'ulot" bo'limini ajratish imkonini berdi va dasturning keyingi nashrlarida bu bo'lim takomillashtirib borildi.

Yusuf Xos Xojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. U boldan madorki, tandan quvvatni, ko'zdan nurni dildan oromni talab qiladi. Uning ta'kidlashicha, agar insonning o'zida go'zal fazilatlar bo'lsa, ularni boshqalarga o'rgatish lozim. Lekin odob –axloq, rasm rusm odat va ko'nikma hosil qilish uchun so'z kuch va harakat kerak bo'ladi”⁶

Sufi Ollayor falsafiy, aqliy, pedagogik adabiy didaktik yo'nalishda 4 ta yirik asar yaratgan. Ular orasida "Sobot ul –Ojizin" alohida ahamiyatga ega. Asarda pand –nasihatlariga keng o'rin ajratilishi,

⁶ Оила педагогикаси. Тошкент "Алоқачи" 2007 йил 128 бет

uning aqliy tarbiyaviy yo'nalishni yetakchi o'ringa kutargan. "Sobat –ul ojizin"ning yaratilishidan asosiy maqsad komil insonni tarbiyalashdir. "Sabot –ul ojizin"da Sufi Ollayor birovga tarbiya beruvchi kishining, avvalo o'zi qanday bo'lishi kerak degan savolni qo'yib, bunga tarbiya deb javob beradiki bu pedagogikaning asosiy shartlaridan biridir.

Sharqda keng tarqalgan pendnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Kaykovusning "Qobusnoma"sidir. Bu asar sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi va qanchadan – qancha avlodni ma'naviy –aqliy tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta'kidlaydi. "Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyoriy bilan o'rganmas. Ammo farzand beodob bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z quling bilan urmagil, mualimning tayog'i bilan qo'rqitgil. Bolalarga muallimlar odob bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglida gina qolmasin" ⁷

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ldiki sharq mutafakkirlari o'zlarining pedagogik qarashlari bilan o'z davrlaridan ancha ilgarilab ketganlar. Ularning bu qarashlari bir – kecha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkurin boyitib kelmoqda va hozirgi kunda ham ular o'z qiymatini yo'qotgani yo'q, ular bizning ma'naviy qadriyatlarimizdir.

⁷ Оила педагогикаси. Тошкент "Алоқачи" 2007 йил 129 бет

2.BOB. BOLALARNI AQLIY TARBIYALASHDA MONTESSORI METODIKASIDAN FOYDALANISH SHAKLLARI.

2.1. Mariya Montessori metodikasida kichik yoshdagi bolalar aqliy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari

Ta'limning insonparvarlashuvi va inson qobiliyatlarining ochilishi hamda uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli –tuman ehtiyojlari qondirilishi, milliy umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson jamiyat va atrof muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvidir.

Shu bois bugungi kunda maktabgacha ta'lim pedagogikasini rivojlantirish maqsadida bir qancha ilg'or usullar tatbiq etib kelinmoqda. Shulardan biri Mariya Montessori texnologiyasidir. Bu mohiyatan hayotdan o'zlashtirilgan “tabiiy” usul bo'lib, bola tarbiyasida o'zining har tomonlama mukammaligi bilan ommalashgan.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlagandek “Erkin fuqaro ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini shakllantirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur” M.Montessori texnologiyasi aynan shu fikrni olg'a suruvchi usullar majmui bo'lib ma'nan yetuk mustaqil fikrlovchi va doimo muvaffaqiyatga erishishga intiluvchi shaxsni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda mazkur texnologiyani xalqimizning milliy madaniy va tarixiy merosi hamda umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bunday tarbiya asoslarini yaratish esa bugungi kunda asosiy maqsadidimiz hisoblanadi.

“Bizning bolalarga bo'lgan munosabatimizni o'ylar ekanman –deydi. Montessori biz ularda tug'ilajak aqliy tuyg'ularini ehtiyojkorlik bilan rivojlantiruvchi hamda mashq qilidiruvchi omil hisoblanamiz”. Demak biz bolalarni rivojlantiruvchi asosiy omil ekanmiz, inson uchun nima muhim biz ularga nisbatan qanday munosabatda bo'lishimiz kerak? – degan savolga javob izlashimiz zarur.

Eng avvalo bola bizning shaxsiy mulkimiz degan fikrdan qutilishimiz kerak. U nafaqat o'z oilasining a'zosi balki jamiyatning bir bo'lagi ekaniga ko'nikishimiz zarur. Bundan tashqari bola boshqalarga tegishli bo'lgan yagona insoniy hilqat hisoblanishini ochiq tan olishimiz juda muhim.

Kichik yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi (Montessori metodikasi bo'yicha)

Agar biz bugungi kunda «Zamonaviy maktablarda o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasi qay ahvolda?» degan savolni bersak, Montessori bizning savolimizga shunday javob berar edi: «Maktab o'qituvchisi o'quvchi intellektining quruvchisi hisolanadi. O'quvchi o'qituvchi imkon bergan darajada shakllanadi. O'qituvchi nimaniki bergan bo'lsa, o'shani biladi. O'qituvchi nimani tushuntirgan bo'lsa, o'quvchi undan ko'p ham, kam ham narsani tushunmaydi. O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini maqtashganda bu maqtovlar bevosita o'qituvchiga ham tegishlidir. Sinfning yutug'i — uning muvaffaqiyatidir. Uning mahorati shundaki, o'quvchilarga yetkazishni zarur deb bilgan darsini bolalarning diqqat bilan tinglashlaridir». Aytilgan bu so'zlar ayni haqiqat. Xo'sh, bular boshlang'ich maktabga tegishlimi yoki bolalar bog'chasiga aloqador? O'qituvchi, tarbiyachi, xullas, bolalarni tarbiyalovchilarning barchasi ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat yurituvchi asosiy shaxs hisoblanadilar. Shuningdek, ularning ruhiy rivojlanishida ham cheksiz quvvat manbai hisoblanadi. Bolalarga faqatgina kattalar tomonidan yoki o'z xohishi bilan yoxud belgilangan dasturga ko'ra taqdim etiladigan «taomni» qabul qilishgina qoladi, xolos. Va shu o'rinda «erkinlik», «erkin tarbiya» deb ataluvchi tushunchani yuzaga keltiradi.

«Erkinlik» masalasi qancha ko'p muhokama qilinmasin, bola baribir qaram bo'lib qolmoqda. Hattoki unga yuqori darajada e'tibor ko'rsatilganda ham u erkin emas, balki «qarovsiz»dir. Ya'ni, uning intellekti qarovsiz, «yoqimsiz taomni tanovvul» qilishga majbur. Natijada rivojlanish uchun keng erkinlik beruvchi hissiyotlarga bo'ysunadi. Faqatgina shunchaki harakatlanadigan bola erkin hisoblanmaydi. Balki o'z harakatlarida aniq o'ylangan maqsadga ega

bo'lgandagina muayyan tashkil etilgan sharoitda o'z shaxsini rivojlantirishga va shakllantirishga qodir. Shaxsiy rivojlanishi uchun uning o'zi mustaqil ish tanlay oladi. Biror bir ishga uzoq vaqt davomida o'z intilishi bilan katta intellektual, maqsad bilan sho'ng'ib ketadi. Fikrni jamlab predmetlarni (sensor materiallarda) tanlash imkoniyatini, muhokamasi va tuzatish imkoniyatini qo'lga kiritadi. O'z salohiyatini yuzaga chiqarib, uni yuksaltirish uchun turtki bera oladigan bolagina erkin hisoblanadi.

Bolani shaxsiy intellekt maktabiga joylash bilan biz uning turini muqarrar o'zgartiramiz; «bolalik psixologiyasi» nomida izohlanuvchi bola haqidagi barcha tasavvurlar, agar bolalarni Montessori sharoitida uzoq vaqt kuzatadigan bo'lsak, sezilarli darajada ba'zi bir munosabatlarda tamomila o'zini oqlamaydi.

Uch yoshga yaqin yosh bola birinchi bor bolalar bog'chasiga kelganda unga xuddi hamma narsani yozish mumkin bo'lgan «oppoq qog'oz» degan tasavvur bilan emas, aksincha, tashqi olam ta'sirida to'plangan tartibsiz taassurotlarga ega, deb yondoshishimiz zarur. «Uch yoshli bola kechinmalarida turli chalkashliklardan iborat og'ir bo'shliq mavjud bo'ladi», deydi Montessori. Aksariyat hollarda oxiri uyqu bilan tugaydigan sababsiz injiqliklar va yig'i, uning ustiga yopiriladigan

32 tashqi olamdan olingan hisobsiz taassurotlar hisobiga yuzaga keladi. Hyech kim xayoliga ham keltirmaydiki, sayr bola uchun mehnat hisoblanadi. Ayniqsa, hali uning sezgilari layoqatli bo'lmagani holda ko'rish va eshitish orqali xatolarini to'xtovsiz to'g'rilab boradi. Narsalarni kuzatib ko'zi bilan aniq baholay olmasligi uni o'ta toliqtiradi. o'z yoshligini eslay oladiganlarning hammasi buni tasdiqlashi, yosh bolalarni kuzatuvchi har bir e'tiborli odam buni har qadamda ko'rishi mumkin.

Biz bolaga bu og'ir holatdan chiqib olishga yordam berishimiz kerak, unga dunyoni chalkashlik sifatida emas, balki tabiatan nihoyatda intiluvchanligini hisobga olgan holda, tabiatning qat'iy tartibda ekanini anglashga imkon berishimiz lozim. Bunga yaqinlashish uchun esa bola atrofdan tabiat qoidalari asosida boshlanuvchi uning ichki uyushqoqligi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lgan nimadir topishi kerak. Aytaylik, xuddi hasharotdek to'g'ridan-to'g'ri o'z shakl va

mohiyatidan kelib chiqib, ranglarning shakli va sifatini topish kerak bo'ladi. Boshqacha aytganda, biz bola uchun aniq belgilangan sharoit yaratib berishimiz va unga intellektual mustaqil mashqlar uchun zarur tashqi vositalarni berishimiz kerak. Bu vositalar tasodifiy yoki o'qituvchi xohishi bilan tanlangan bo'lmasligi kerak. Balki bola uchun aqliy rivojlanishda mustaqil mashqlar obyekti bo'lib xizmat qiluvchi, Montessorining sezgi a'zolarini tarbiyalashga qaratilgan didaktik materallari bo'lishi, tajriba orttirilishi natijasida sekin-asta taqdim etishi kerak.

Dastlab intellektning rivojlanishi uchun faktlarning to'planishi va ularning farqlanishi zarur bo'ladi. Bolaga bu asosda o'z intellektini oshirishga ko'maklashish faqatgina mashqlarda «o'zini-o'zi boshqarish» bilan amalga oshiriladi.[^]«Boshqa bir odam bizning o'rnimizga mashq qilib, bizga mahorat orttirish imkonini berishi aqlga sig'maydigan holatdir», deydi Montessori. Sensor materiallardagi sezgiga doir mashg'ulotlar bolalarga ajratish va tavsiflash (klassifikasiyalash) imkonini beradi. Hozirgi kunda ba'zi narsa-buyumlarni ularning sifatidan bo'lak boshqa belgilariga qarab ajratish imkoniyati mavjud emas. Montessorining sensor materiallari ham narsa-buyumlar sifatini: o'lchami, shakli, rangi, yuzaning silliqligi va g'adir-budurligi, og'irligi, harorati, hidi, shovqin, ovozini tahlil qiladi va ko'rsatib beradi. Predmetlarning sifatigina bir-biridan farqlanadi, ularning o'zi emas, chunki bu sifatlar predmetning belgisini bildiradi. Misol uchun Montessori materiallaridagi ixtiyoriy predmetni olaylik, u favqulodda oddiy, bola diqqatini o'zida jamlovchi sifatlarga ega. Unda bolaning e'tiborini tortuvchi sifatlar mavjud bo'lib, uni qiynab qo'yuvchi barcha ortiqcha belgilar olib tashlangan. Masalan, balandlik va hajmni farqlash imkonini berish uchun bolaga shunchaki hajman har xil bo'lmagan silindir, kub va prizmalar berish kerak. Qo'ziqorin, tuxum yoki jo'jaxo'roz va shunga o'xshash narsalar berilmaydi. Shaklni farqlash uchun tekis geometrik shakl va jismlardan foydalaniladi. Uychalar, gullar va olmalar bu tarkibga kirmaydi. Rangni farqlashda esa qo'g'irchoq, gul yoki qo'lda yasalgan o'yinchoqlar emas, balki oddiy rangli shoyi qirqimlari kifoya. Ranglar tartibini anglatuvchi yo'nalishda joylashgan bu predmetlar ranglarning sifatiga qarab ham ajratiladi.

Bola mashq qilar ekan, bu sifatlarni farqlab beradi: endilikda u predmetlarning ko'proq yoki kamroq, baland va past, yo'g'on va ingichka, ko'p va kam bo'lishi mumkinligini farqlaydi. Ranglar bo'yalganlik darajasiga qarab turlicha bo'lishini, tovushlar turlicha jarangdorlikda, shakllar bir-biriga o'xshashligi jihatidan turli darajada bo'lishini anglab yetadi. Bola material predmetlarini juftlash va qo'yish bilan sifatlarni ayniyatini o'rnatish holatida bo'ladi. Masalan, bola geometrik shaklni kartonga qo'yish, ularni yacheykaga yasoylash, ikkita rangli jadvalni yonma-yon qo'yishni bajaradi. Shuningdek, ikkita kub, prizma yoki tayoqni qo'yadi. Keyinchalik esa individual darslar yoki o'z shaxsiy xulosalariga tayanib, bola sifatlarni tafovutini aniqlaydi: uzun-kalta, yorqin-xira, katta-kichik va boshqalar. Va nihoyat, qachonki rangli katakchalar, prizma, tayoq, silindr geometrik shakllar kabi predmetlar turlari bo'yicha ketma-ket joylashganda sifatlarni darajasini farqlashni boshlaydi.

Biz har doim bolalarimizdan quyidagi iboralarni eshitamiz: «bu xuddi o'zi», «u bungao'xshaydi», «judayam o'xshash», «sal-pal o'xshash», «ko'proq», «semizroq», «kengroq», «buxiraroq», «bu rangliroq», «bu baland, bunisi pastroq» va shu kabi. Uning o'ziga ma'lum bo'lmagan, ammo ongda yashirin yotgan va unda zarurat tug'ilgandagina yuzaga chiquvchi aniq so'zlarni ishlatishni boshlaydi.

Sifati bo'yicha farqlanuvchi narsa va buyumlar ma'lum tartib asosida guruhlarga taqsimlanadi. Bunday vaziyatda tevarak-olam bola uchun chalkash tuyulmaydi. Har bitta predmet o'z o'rnida va darajasida bo'ladi. Bola o'zlashtirgan har bir bilim faqatgina «tasavvuriy» bo'lmay, balki «aniq» faktlar asosida egallanadi. Shu taxlitda bola ongida mustahkam va muntazam boyib boruvchi dastlabki tartib o'rnatiladi. Yosh bolaning kelajakda aqliy rivojlanishi asosan dastlabki ichki tartibning o'rnatilishiga bog'liq. Montessori bu o'sishni homila rivojlanishi bilan taqqoslaydi: homilaning o'sishi emas, balki uning tartib bilan rivojlanishi muhimdir. Bu tartibning ahamiyati shundaki, u to'g'ri rivojlanishni kafolatlaydi. Hamda yashash imkoniyati hisoblanadi. Homila butunlay ulg'aygan, lekin ichki organlari nomutanosib bo'lsa, u hayotga layoqatsiz bo'ladi. «Tirik organizmning ichki takomillashuvini ta'minlaydigan hayotiy imggulslarning

asosiy sharti ichki tartib uyg'unligi bilan bevosita bog'liqdir. Aynan mana shunda hayot siri yashiringan», deydi Montessori. Embriion ruhiyati taraqqiyotida ham aynan shu sodir bo'ladi. Agar yosh bolaga ongini shakllantirishga imkoniyat berilmasa, u holda aqliy tartibsizlik yuzaga keladi va intellekt qaror topmaydi. Har kuni bolalar bilan bir necha soat erkin ish sharoitida birga bo'lsangiz, har kuni hayajonli damlarni ko'rasiz, eshitasiz. Bolalarning goh unisi, goh bunisi o'z kuzatishlari asosida ixtirolar qiladi va ularni siz bilan bo'lishadi. Montessori tizimidan bexabar begona kuzatuvchi uchun bolalardagi bu kabi o'zgarishlar osongina nazardan chetda qoladi. Yoki kattalarning aksar qismi yosh bolalarda kattalarga taqlid mahsuli sanaladigan va o'zlari ma'nosini tushunmasdan ixtiyorsiz ravishda faqatgina so'z talaffuzidan rohatlanish tuyadigan o'tkir so'zlar va safsatalarga e'tibor qaratadilar.

Qo'lida geometrik jismni tutgan bolalar ularni predmetlarda gavdalantiradi: «Derazadagi gulchelak — silindr», deydi bola derazaga qarab. «Gultuvaklar esa — konuslar, faqat oyoqlari tepadan», deydi qizaloq ham oynaga qarab. «Butun emas, kesilgan», yakunlaydi boshqasi. Ularning uchchalasi yana boshqa jismlarda ham geometrik asosni topishga harakat qiladilar. Elektr lampa osilib turgan o'tkazgich silindrga o'xshaydi, faqat juda ingichka, uning qalpog'i esa yarim shar shaklida. Kichkina qizaloq to'g'ri burchakni qidiradi, uni hamma yoqdan topadi: «Gugurt ham to'g'ri to'rtburchakka misol bo'la oladi, — deydi. — Faqat juda-juda ingichka». Aylana chizadi va uning o'rtasiga nuqta qo'yib: «Hammasi uchun markaz bitta», deydi. U polga chizilgan doira bo'ylab yugurib, yo'nalishini o'zgartiradi va davom etadi: «Men uchburchak bo'ylab chopdim, endi esa kvadrat bo'ylab chopypaman». U yana to'g'ri burchakni chizadi va bir xil uzunlikdagi to'g'ri to'rtburchak yog'och vkladkani qog'ozga qo'yib, yanada aniq so'zlarni aytadi: «Uzunligi bo'yicha ular baribir kaltaroq, eni esa mos keladi». Bolalar osmon ranglarini kuzatadilar, unga uzoq tikilib, osmon va bulut ranglarining nozik farqlarini muhokama qiladilar.

Montessorining fikricha, intellektni rivojlantirishdagi boshqalardan farqlanuvchi asosiy belgilardan biri vaqt bilan bog'liqdir. Rag'batlantiruvchi

omilga intilishda, g'oyalarni jamlashda, qarorni ifodalashga qodirlikda epchil bo'lish intellektning namoyon bo'lishining birinchi tashqi ko'rinishidir. Bu «tezlik» albatta atrof-muhitdan taassurot yig'ish imkoniyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Olingan bilimlarni qayta ko'rib chiqadi va ijodiy ish sifatida namoyon bo'ladi. «Bolalarimizdagi tezlik bilan ta'sirlanish intellektning tashqi tomondan namoyon bo'lishi hisoblanadi», deydi Montessori. Bu tezlik faqatgina boshqaruv bilan izohlanmaydi, balki biz yuqorida eslatib o'tganimiz ichki takomillashuv mahsuli hisoblanadigan tartib bilan ham izohlanadi. Ichki uyg'unlik intellektning yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Uyg'unlik tezlik bilan ta'sirlanishda asosiy kalit hisoblanadi.

Tartib — harakat tezligini ta'minlovchi asosiy omildir. Hali aqlan shakllanmagan, fikrlari tarqoq bolalarda hissiy anglash va qaror qabul qilish qiyin kechadi. Farqlay bilish — aqliy salohiyatga xos xususiyat bo'lib, farqlash va tartiblashtirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ijodiy yondoshuvga tayyorlaydi. «Ijod ma'lum tartib asosida rivojlanadyT», deydi Montessori. Mustaqil mashg'ulotlardan tashqari bolaning ma'lum sezgi va idrokini namoyon qilishga tarbiyachi xalal bermasa, uning nima haqida fikrlayotganini aniqlash mumkin. Bolaning sezgi va idrokini rivojlantirishga alohida e'tibor berish orqali uning tasavvurini aks ettirishga imkoniyat yaratamiz. Bola silindrlarni, yassi geometrik vkladkalarini bir-biridan chiqarib, yana joylashtirganda, mato bo'lagini silliqligiga qarab ajratganda, rangli kartochkalarni rangiga binoan joylashtirib chiqqanda sezgi va idrok namoyon bo'ladi. Materialning o'zi shunday qurilganki, ularni alohida bo'laklarga ajratish mumkin. Yosh bolalarning o'zlari alohida belgilari bo'yicha ajratuvchi o'yinlarga moyil bo'ladilar. Hammamizga ma'lumki, ularning murakkab rasmlarni tushunishga layoqatlari yetishmaydi. Ammo undagi biror-bir predmet tasvirini zavq bilan kuzatadilar. Uzoq vaqt davomida tosh, shoxcha yoki qog'oz bo'lagini qo'lga olib, paypaslab ko'radi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'z sezgilarini mashq qildirib idrok etadi. Lekin Montessori bolalar tabiiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlab, ularning hammasini birdaniga emas, balki birin-ketin his etishga o'rgatib, tartibga soladi. Tevarak-atrof

rang-barangligidan bir qancha taassurotlar bir joyga jamlansa bola vositalar orqali ularni idrok etib, predmetlarni bor holicha ko'radi. Bir sezgi boshqasiga muvofiq ravishda harakatlanib, uning faolligi yuzaga chiqishini tezlashtiradi: bola o'ziga kerak bo'lgan paytda shakl, rang va ovozni ham topa oladi.

Muayyan belgilangan sifatni boshqalari orasidan ajratib olishdagi intellekt ishi, shubhasiz, faol bo'lishi kerak: intellekt predmetni tahlil qiladi, undan aniq bir sifatni ajratib oladi va ularni boshqarish bilan ko'p predmetlarni u yoki bu bog'liqliklari yordamida birlashtiradi va sintez qiladi. Agar biz ikkita to'g'ri to'rtburchakli plastinkalar o'xshash, desak, bunda shakldan tashqari qolgan barcha sifatlarni chetga surib qo'yamiz. Agar ikkita predmet rangi bir-biriga o'xshash, desak, ko'plab boshqa sifatlar orasidan bitta sifat — aynan rangni alohida ko'rsatamiz. Lekin bu jarayon amalga oshishi uchun predmetlarni qandaydir bir sifatda saralash ko'nikmasi egallangan bo'lishi lozim. Montessori metodikasi asosida tarbiyalangan bolalar belgi va xususiyatiga ko'ra guruhlashga tartib bilan yondoshadilar. Ularga predmetlardagi turli sifatlarni farqlay bilish va ba'zi predmetlar shakli, boshqalari esa rangiga ko'ra bir-biriga o'xshashligini aniqlash qiyin emas. Chunki shakl ham, rang ham ular uchun yaxshi tanish toifalarda allaqachon guruhlangan va aynan shuning uchun bir guruh predmetlarning o'xshashliklarini yuzaga chiqaradi. Bu ishda turlicha yondoshuvlarni qayd etish mumkin: ustunlik qiluvchi sifatni aniqlash shaxsiy tug'ma mayl bilan bog'liqlikda amalga oshiriladi. Aynan bitta predmetga qarab turib, bir bola uning shaklini ajratib ko'rsatadi. Boshqasi rangini, uchinchi hammasini va h.k. Aynan bitta mato qirqimi rangi bilan bir bolaning diqqatini o'ziga tortsa, ikkinchisini silliqligi bilan, uchinchi esa tiniqligi bilan jalb etadi. Deraza oynasi bitta bola uchun to'g'ri to'rtburchak, boshqasi uchun u osmondan yorug'likni o'tkazgich vazifasini o'taydi, uchinchi bola esa tekislik va harorat deb biladi va h.k. Aqliy salohiyat predmetlarni suratga tushirish va ularni cheklanmagan miqdorda ustma-ust saqlash imkoniyatiga ega emas. U o'zining ajratish va taqsimlash qobiliyatiga ko'ra, jismlarda ustun turuvchi sifatlarni farqlashi va ajratib olishi mumkin. Keyin esa o'z ichki qurilishini yakunlashi mumkin. Bolaga bu yo'nalishda

ishlashiga imkon berish bilan biz unga o'z intellektini to'g'ri qurishga yordam beramiz va uny ^kutilmagan ortiqcha narsalarning yog'ilishidan, ortiqcha yukning ziyonidan himoya qilamiz. Har qanday yaratilgan va harakatlanuvchi narsa borliq chegarasi asosida izohlanadi. Xuddi shunday bizning ham har bir sezgimiz tebranishning bitta muayyan turkumiga javob beradi: ko'z nur bilan, quloq ovoz bilan chegaralangan. Intellekt uzluksiz ravishda sezgilarni chegaralaydi. Ichki saralash orqali ularning to'planishini cheklaydi. Shunday ekan, diqqat hamma jismlarda emas, balki boshqalar orasidan xohish bilan tanlanadigan muayyan jismlardagina jamlanadi. Intellektning yuqori darajadagi ishi quyidagi yo'l bilan mukammallashadi: diqqat va irodaning ichki harakatlari orqali u jismlarda ustunlik qiluvchi sifatni ajratib oladi. Shu tariqa ifodalarni birlashtirish hamda tutib turish imkoniyatiga erishadi. Busiz tashqi olamdan sezgilar yordamida to'plangan ko'plab ortiqcha narsalar tugallamagan va noaniq tarzda qolgan bo'lar edi.

Tarbiyalangan intellekt ahamiyatlilarini ortiqchalardan ajratib oladi va uni keyinga tashlaydi. Hamda shu yo'l bilan o'zining aniq va tugallangan maqsadiga erishadi. U har bir materialdan o'zining ijodiy hayoti uchun foydali bo'lganlarini ajratib olishga qodir. Olingan ko'plab taassurotlar orasidan ahamiyatlisini ajratib olish evaziga narsalar haqida tasavvur va xulosa qilish imkoniyati yuzaga keladi. Ong bir nechta umumiy va bir-biriga o'xshamagan narsalarning sifati to'g'risida aniq bir xulosa chiqaradi. Bu ayniqsa Montessorining aqliy salohiyatning faolligini oshiruvchi didaktik materiallarining xarakterli xususiyatidir, ularda xatolarni nazorat qilish imkoniyati mavjud.

Masalan, yosh bola diqqatini jalb qiluvchi dastlabki predmetlardan biri — bu silindrli andozalardir (turli hajmdagi — bir-biridan ajratib va qayta joylashtirsa bo'ladigan silindrlar). Bu material o'zida mexanik nazoratni mujassamlashtirgan. Bittagina bo'lsin, silindr noto'g'ri qo'yilgan bo'lsa, mashqni oxirigacha yetkazib bo'lmaydi. Chunki xato bunga to'sqinlik qiladi, u qanchalik oson bo'lmasin, kichik yoshdagi bola uni mustaqil tuzatishi kerak. Shu tariqa bunday vaziyatda boshqa mashqlardagi kabi nafaqat faollikni oshiradi, balki uni boshqaradi ham. Bolada mashq qilish istagi bilan bir qatorda xatoni to'g'rilash mayli ham tug'iladi.

Keyinchalik faollik yanada yuqoriroq, haqiqiy intellektual ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bolada nafaqat topshiriqni aynan taqdim etish istagi, balki yangi ko'rinishga keltirishga intilish ham paydo bo'ladi. Mashq va tajribalar jarayonida bolalarda egallangan bilimlarni takrorlash orqali bir qator aqliy xulosalar tug'iladi. Bu yuqori intellektual ish ichki bir xohish bilan mashq qilinadi: qalin silindrlar ingichkalariga qaraganda mustahkamroq, birmuncha katta va kichiklari o'z xususiyatiga ko'ra yo'g'on va ingichka. Baland va past bir xil asosga ega bo'lib, jismlarning bo'yi va eniga qarab o'lchash mumkin. Hajm o'z ichiga quyidagi ikkita tushunchani oladi: «U katta va yo'g'on, bunisi esa kichkina», deydi bola. Baland va past silindrlarning tuzilishini taqqoslash orqali o'z-o'zidan chuqurlik haqida tushunchaga ega bo'ladi.

Birmuncha jiddiy mashqlarda nazorat yanada kuchaytiriladi. Aytaylik, geometrik shakllarni katakchaga qo'yishda, kartochkalar yordamida tuzilgan va yozilgan so'zlarni kuzatganda, arifmetik mashqlarda kubiklarni sanashda tekshiriladi. Shu o'rinda Montessori materillari bilan shunchaki sezgi organlarini tarbiyalovchi turli tasodifiy, bolani aqliy rivojlanishdan chalg'ituvchi o'yinchoqlar o'rtasida asosiy tafovut yuzaga keladi. Bolalarning o'zlari, ya'ni har bir sog'lom bola o'zida yangi bilimlarni egallash imkoniyati borligini his qilgan holda u'larni o'zlashtirishga intiladi. Bu jihatdan yaratilgan qulay sharoit bolani materialga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lishga o'rgatadi, materiallarni o'yinchoqqa aylantirishni to'xtatadi. Dastlabki vaqtlarda ko'pchilik bolalar faqat o'yin orqali bilim olib, kattalar fikrini sustlik bilan qabul qiladilar, deb qarashga odatlangan. O'yinchoqlar bolalarga o'yin uchungina kerak, agar ularni aqliy rivojlanish borasida zarur material sifatida talqin etish boshlansa, buni Montessori «Hayotni soxta yo'lga boshlashga intiluvchi behuda urinish», deb to'g'ri izohlagan.

Materiallarda mashq qilish bilan bolalar mustaqil ravishda o'z intellektini oshiradilar. Hamda individuallik uchun xarakterli bo'lgan aqliy ko'nikmalarni egallaydilar. Shubhasiz, tushunish va boshqalarni muhokama qilish bilan o'zini-o'zi tushunish imkoniyati o'rtasida juda katta farq yotadi.

Hammasini o'zi anglagan inson uchun go'yoki u taassurotlarni kutilmaganda olgandek tuyuladi. Uning ongi ilgarilab, nimadir yorqin charaqlagandek bo'ladi. Anglash bu o'rinda ahamiyatsiz emas, bu aksar hayotimizda uchraydigan o'sha nimaningdir boshlanishi hisoblanadi. «Insonda hych bir tuyg'u intellektual tuyg'udek mahsuldor bo'lishi mumkin emas. Kimki katta kashfiyotlar qilgan bo'lsa, u albatta beqiyos insoniy zavqlanishni tuyadi.

«Ruhshunoslar bu zavqlanishni hissiyot bilan ifodalagan bo'lardilar. Fiziologlar esa taqqoslab ko'rib, quvonch ham ichki ruhiy yuksalishning belgisi hisoblanadi, deb ta'kidlashlari aniq. Xuddi og'irlikka vaznning qo'shilishi jismoniy o'sishning belgisi bo'lgani kabi», deydi Montessori. «Go'yoki bolalar bilim olish bilan o'zidagi ichki shakllanishni his etayotgandek, bu tuyg'ularni cheksiz quvonch bilan ifodalaydilar. Men buni italiyalik bolalarda ko'rganman, har kuni rus bolalari bilan ishlaginimda ko'raman, hozir esa hatto ochlik, sovuq, tinchlik va har qanday noqulaylik, ayniqsa, sovuq sharoitda ham uchratyapman. Bizda 6-7 yoshli bolalarning 10 °S harorat bo'lgan sharoitda ham chizgan suratlari tesha aziyat chekishi ustidan ruhning oliy g'alabasi sifatsda xonada saqlanib keladi».Montessorining amerikalik izdoshlaridan biri shunday deydi: «Bizdagi o'zimiz uchun yangi va haqiqatda yaxshi nimadandir faxrlanish hissi barcha bolalarda namoyon bo'ladi. Ular nimanidir, mayli u juda oson bo'lsin, qilishni o'rganib olganlarida sakrashadi va bo'ynimizga osilib: Men buning hammasini o'zim qildim, axir siz buni qila olishimni bilmas edingiz. Bugun men buni kechagidan ham qoyilmaqom qilib bajardim, deydilar».O'z ichki ruhiy ehtiyojiga tamomila javob beruvchi vositani topib, bolalarning har biri o'z intellektini rivojlantirish va takomillashtirish uchun o'z yo'lini tanlab oladi. Montessorining fikricha, bu yo'llar daholik yo'llari mohiyati hisoblanadi. Ularning tavsifi diqqatning jadalligida, barcha tashqi omillardan ajratuvchi o'ta berilib ishlashda. sodiqlik va fidokorlikda namoyon bo'ladi. Xuddi daholardagi kabi fikrni bir nuqtada jamlash samarasiz ketmaydi. Montessori bolalarida ham tez-tez yuzaga chiqishi bilan bizni hayratga soluvchi ichki olam ajayibotlari paydo bo'lishining guvohi bo'lishimiz mumkin.

2.2. Mashg'ulotlar jarayonida Montessori metodikasi yordamida bolalarni aqliy tarbilash.

Bola o'z tabiatga ko'ra aktiv bo'ladi. Uni hech narsa bekorchilik yoki yomon uyushtirilgan faoliyatdek charchatmaydi. Bolalarni bekorchilikka jonga teguvchi "vaqt o'tkazishga" odatlantirish yaramaydi "Bolalar bog'chasida ularning hayoti xilma –xil faoliyatlar bilan to'lib toshgan bo'lib ular jarayonida bolalar qiziqarli yangiliklarni bilib oladilar va aqliy sifatlari tarkib topib boradi. Tarbiyachi bolalar faoliyatidan ularda ijobiy xarakter belgilarini qiziqish va foydali odatlarning brqarorligini tarbiyalash uchun foydalanish kerak. Pedagog bolalarning yosh va indiviudal psixik –fiziologik xususiyatlarini, ularning taraqqiy etish qonuniyatlarini bilib olgandan keyingina har bir bolani tarbiyallashning eng samarali usullarini aniqlay va tanlash oladi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bolada shaxsning eng muhim aqliy sifatlari tarkib topadi, xarakter belgilari hosil bo'ladi. Odamning ko'pgina murakkab aqliy sfatlarning negizini ilk maktabgacha tarbiya yoshida tarbiyayoshida tarbiyalangan odatlar tashkil etadi.

Dasturda har bir yosh gruppasi bolalarning xulq atvorini, odatlarini malaka va ko'nimklarining ko'lamini hamda mazmuni belgilab berilgan. Birinchi kichik gruppada bolalarning asosiy xarakatlarning moslashuvini taokmillashtirish, bolaga bu harakatlarni boshqarishni o'rgatish zarur. Bu gruppada aqliy normalar shakllanadi: bolalarga o'z kiyimidagi tartibsizliklarni sezishni, o'zini tartibga solishni, kattalar eslatib va ko'maklashib turganlarida ovqatdan oldin hamda kirlangan qo'lni yuvishni, yuz yuvishni, qo'lni sochiqqa yaxshilab artishni, o'z sochig'i yaxshilab artishni, o'z sochig'i, dastro'molidan foydalanishni, betartib o'tirish, ovqatni to'g'ri chaynash qoshiqni o'ng qo'lda ushlashni o'rgatish lozim. Birinchi kichik gruppada o'z –o'ziga xizmat ko'rsatish malakalari tarkib toptirishga boshlaydi: bolaga kiyimni muayyan tartibda yechish va kiyish, taklab qo'yish, tugma qadash hamda yechish

botinkani iplarini yechish o'rgatiladi. Bola uchun bu juda katta ish tarbiyasi bilan enaga bu ishning qanday qilinishini ko'rsatib unga yordamlashib turadilar. Bolalarni dastlab juda oddiy ishlar qilishga, masalan tuyli kiyishga, ko'ylakni yechib, tortib bilan taxlab qo'yishga payponi tuzatib qo'yishga, shundan kiyingina paypoqni mustaqil kiyishga va hokazolarga o'rgatish kerak.

Mustaqilikka intilish kichkintoylarga xos xususiyatdir. Bolalar uch yoshga qadam quyganlarida ko'pincha "o'zim qilaman" deydilar tarbiyachi enaga mustaqillikka bo'lgan bu intilishni qo'llab – quvvatlashlari tarbiya berishda undan foydalanishlari lozim. Masalan, bolaga "endi sen kap –katta bo'lib qolding qoshiq bilan ovqatlana olasan" yoki "Sodiqjon paypog'ingni kiya olishiningni yoxud tugmalariningni qaday bilishingni botinkangni iplarini ega olishingni ko'rsat" va xokazolar deyish mumkin. Bolalarga mehnatsevarlik xususiyatlarini singdirish ham kichik gruppada tarbiyachisidan ko'proq e'tibor berishni talab etadi.

Pedagog bolalarda kattalarga yordamlashish istagini paydo qilib ularni oshpaz, enaganing mehnati bilan tanishtiradi, onalarning mehnati haqida suhbatlashadi, ularni juda oddiy topshiriqlarni bajarishga, masalan o'yinchoqlarni maydonchaga olib chiqishga, yerdagi qog'ozlarni terib olishga, stol va stullarni qo'yishda enaga ko'maklashish va hokazolar qilishga o'rgatadi. Bolalarga ozodalik va tartibga rioya qilish: oyoqni yaxshilab ortish yuvinayotgan paytda polni iflos qilmaslik suv sachratmaslik, o'yinchoqlarni har yerga sohib tashlamaslik hamda singdirmaslik, bolalar jamoasida xulq atvorning eng oddiy qoidalariga rioya qilish o'rnatiladi.

Bolalarda madaniy xulq –atvor malakalari tarkib toptiriladi: ularga odob bilan salomlashish, tabriklashish minatdorchilik bildirish iltimois bilan murojaat etish, ovqatlanib bo'lgandan keyingina o'tirgan joyidan turish, bir –biriga xalaqit bermaslik, o'rtog'ining qo'lidan o'yinchoqni

tortib olmaslik bog'chadagi o'yinchoqlardan foydalanish o'yinchoqlarni o'z joyiga yig'ib qo'yish yerga tashlamaslik va singdirmaslikni o'rgatish kerak. Bolalarda birga o'ynayotgan o'rtoqlariga xayri –xohlik hissi, ularga nisbatan do'stona munosabatlar tarbiyalash lozim.

Pedagog bolalarda jamoa hissi va jamoada o'zini tuta bilish ko'nikmasini tarbiyalashni davom ettiradi, ularga birga o'ynay, birga mehnat qilish uchun birlashishni ahillik bilan kelishib olishni o'z harakatlarini bir –birlari bilan moslashtirib olishni va bir –birlariga ko'maklashishni o'rgatadi.

Pedagog aqliy tushunchalarni hamda ezgulik, halollik haqiqatgo'ylik va do'stlik haqidagi tasavvurlarni mustahkamlab borishi kerak. Pedagog salbiy sifatlarni ayyorlik, yolg'onchilik, shafqatsizlik, manmanlik, qo'rqqoqlik, yalvoqlik sifatlarini osoyishta, ta'sirchanlik bilan bir ohangda qarolashi kerak. Pedagog nasihatgo'ylik qilish va to'g'ridan –to'g'ri taqiqlab qo'yish usullarini qo'llanishdan o'zini tiyish lozim. Bog'cha bolalarida ijtimoiy xulq –atvor malakalari: kattalarga birinchi bo'lib salom berish odob bilan xayrlashish, ko'rsatilgan yordam va g'amxo'rlik uchun minatdorchilik bildirish, kattalarga ko'maklashish hamda xizmat qilish malakalari tarbiyalanishi darkor.

Uyushqoqlik, intizomlilikni tarbiyalashga alohida e'tibor berilishi kerak. Mashg'ulotlarda, sayrlar va bolalarning mehnat faoliyatlari paytida har bir bolada bilimga qiziqish kuzatuvchanlik, har narsaga qiziquvchanlikni, analiz hamda sentez qilish qobiliyatini ya'ni narsa hamda hodisalarning ham umumiy, ham individual belgilarini farq qilish ko'nikmasini o'stirish, bolalarga umumlashtirish, fikrlash va xulosa chiqarishni o'rgatish ularda barqaror, diqqatni tarbiyalash zarur.

Mashg'ulotlar bolalar bog'chasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. mashg'ulot pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishdir.

Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimni boyitadi, madaniy gigiyenik, xulq madaniyati gaplashish nutqi, sanoq hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko'nikmalarni shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi.

Mashg'ulot bolalarni maktabgacha tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali o'zini –o'zi yaxshi tashkil etadigan bo'lib qoladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolaning aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyorli diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini, dasturning har –xil bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur.

Mashg'ulotlarni kunning birinchi yarmida o'tkazish katta ahamiyatga ega chunki birinchidan bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug'lik bilan yaxshi taminlangan bo'ladi. Dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalarni guruh xonasi qo'g'irchoq va o'yinchoqlar bilan tanishtiradi. Qo'g'irchoqlar yordamida mashg'ulot o'tkazaladi. Tarbiyachi avval bolalarda mashg'ulotga qiziqish uyg'otadi keyin esa mashg'ulotning hamma uchun majburiy ekanligini sekin –asta bolalar ongiga singdirib boradi.

Sekin –asta mashg'ulot bolalar xulqiga moslab murakkablashtirib boriladi. Ular mashg'ulot paytida axloq qoidalarini egallab oladilar: to'g'ri o'tirish, chalg'imaslik, tarbiyachi va o'rtoqlarini diqqat bilan eshitish, tarbiyachi so'ragandagina javob berish, javob berganda o'rnidan turish, kerak bo'lsa stolning oldiga borish va xokazolarni o'rganadilar.

Katta bolalar o'zlarini tez tashkil eta bilishlari lozim: bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga osonlik bilan o'tishlari mashg'ulot vaqtida ish joylarini ozoda saqlashlari, rasmga qarab so'zlaganda ko'rsatkichdan foydvlvnmshlvrm javob berganda gavdalarini to'g'ri tutib turishlari nutqlari tushunarli bo'lishlari, yetarli darajada baland ovozda gapirishlari to'la javob berishlari.

Mashg'ulotdan keyin o'z ish joylarini yig'ishtirib qo'yishlari kerak. Mashg'ulot paytida talabni bajarish axloq normasiga aylanib qolishi kerak. Bu ikki narsa asosida shakllanadi: birinchisi tarbiyasining obro'siga asoslansa, ikkinchisi ma'lum talabning rivojlanishi bilan amalga oshiriladi. Tashqaridan qaraganda bolalar xulqida hyech qanday farq ko'rinmaydi –bu odatdagi intizomga bo'ysinishning natijasi, ikkinchidan bu o'quv faoliyati rivojlanganligining kelgusi, ta'limning ta'siridir.

Mashg'ulotda axloq qoidalariga rioyala qilish bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega bo'lib maktab ta'limiga madaniy tayyorgarlikni hissiy –aqliy qismi hisoblanadi.

Katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy turmush hodisalari, aqliy fazilatlar to'g'risidagi ancha murakkab tasavvurlarni egallashdagi mashg'ulotlarning roli oshadi.

Bunda bolalarda ta'lim jarayonida ijobiy o'zaro munosabatlarni shakllantirish g'oyat muhim hisoblanadi. Tafakkur, ixtiyoriy eslab qolish, aqliy irodaviy rivojlanish sohasida sezilarli siljish ro'y beradi. Qiziquvchanlikni o'sib borishi, farqlashning rivojlanishi va his tuyg'uning chuqurlashishi bolalarni mashg'ulotda muayyan vaqt davomida ishlashga; faqat quloq solish emas, eshitishga, faqat ko'rish emas, balki kuzatish, sezish taqqoslash, tahlil qilishga o'rgatish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki bir qancha hollarda bolalarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularda o'qishga ijobiy munosabatni tengdoshlariga, pedagogning topshiriq va va ko'rsatmalariga e'tiborini tarbiyalash hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bolalarda mashg'ulotlardagi faoliyat

jarayonida vujudga keladigan turli vaziyatlarni baholashdan foydalanib topshiriqlarni ishtiyoq bilan bajarish tengdoshlariga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish zarurligi to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolani o'qitish sifatida ham, uni aqliy tarbiyalashga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarda faollik, har qanday ko'rsatmani aniq va izchil bajarish ko'nikmasini shuningdek tengdoshlari jamoasida o'zini tartibli tutishni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Bolalar faollik, har qanday ko'rsatmani aniq va izchil taklif etilayotgan savollarga javob berishda, o'rtoqlarini javoblarini to'ldirishda, tarbiyachining xabarlariga e'tibor va qiziqishida namoyon bo'ladi. Ayni paytda bolaning mashg'ulotdagi faol ishtiroki uyushgan holda bo'lishi lozim ya'ni maktabgacha yoshdagi bola xulq –atvor qoidalariga bo'ysunadi, mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan narsalarni, o'z vaqtida tayyorlaydi, mashg'ulot jarayonida o'z stolining ustida tartib saqlaydi va xakozo.

Bolalarning aqliy his tuyg'ularini rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida tarbiyachi tomonidan mashg'ulotlarda foydalanish uchun maxsus tayyorlangan suhbatlar o'tkaziladi. Kishilarning qahramona ishlari haqidagi suhbatlar alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bolalarga mashg'ulotlarda aytiladigan turli ma'lumotlar orasida bolalarni xulq –atvor normalari bilan tanishtiradigan ularning odob haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtiradigan aqliy tushunchalarni shakllantiradigan ma'lumotlar bo'ladi. Bunda odob mavzularidagi suhbatlar katta rol o'ynaydi. Odob haqidagi suhbatlarni aqliy mazmunidagi badiiy asarlar yoki bolalarni ichidagilarni aytishga o'zining odob haqidagi tasavvurlarini ochishga undaydigan vaziyatlarni tanlash asosida uyushtirish mumkin. “Qizga qo'lqopni yuqotib qo'ydi. Sen nima qilgan bo'larding?” “Sen avtobusning derazasi yonida o'tiribsan, keksa ayol kiradi. Bo'sh o'rin yo'q. Sen nima qilgan bo'larding?” “Bunday

vaziyatlar bolalar oldiga to'g'ri yo'lni tanlashni zarurat qilib qo'yadi. Turli suhbatlar bir xil tuzulishga ega bo'lmaslik kerak. Suhbatning qaysi qismi asosiyligini qanday emosional daqiqalar uni to'ldirishni belgilab olish muhimdir. Masalan Montessori "Yomon" hikoyalardan foydalanib odob haqida suhbat o'tkazganda adabiy qahramonlarning xulq-atvori va hatti-harakatini tahlil etish asosiy qismi bo'ladi. Bolalar "Nima uchun hikoya "Yomon" deb nomlanadi? Biz bolalarning xatti-harakatini qanday baholaymiz? Bolalar qanday ish tutishlari kerak edi?" kabi savollarga javob berganlaridan keyin tarbiyachi yaxshi bolalar haqida boshqa hikoya tuzishni taklif etadi maktabgacha yoshdagi bola deyarli hiechqachon o'z tingdoshlarini o'rtasida yomon bo'lib ko'rinishni istamasligini hisobga olib, bolalarning taqqoslash va qahramonlarning xatti-harakatlari to'g'risida hosil qilgan tasavvurlarning o'z turmushiga o'tkaza olish bilan bog'liq suhbatni yakka tartibda o'tkazish yaxshiroq bo'ladi. Tarbiyachi odob mavzusidagi suhbatlar o'tkazganda bolalarning hissiy tajribalaridan mohirona foydalanadi. "Masalan kutubxonaga uyushtirilgan sayohatdan keyin kutoblarga qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida suhbat o'tkazadi. Aqliy tarbiya tasviriy san'at mashg'ulotlarida ham mofaqqiyatli amalga oshirish mumkin. Katta guruhda syujetli rasm solish tematikasi kengayadi. Bolalarga tabiat ijtimoiy turmush taasurotlari bilan bog'liq mavzular tavsiya etiladi: "Bayramona bezatilgan" xona "Biz qushlar haqida qanday g'amxo'rlik qilamiz?", "Bizning poliz" va boshqalar. Bunday mashug'lotlar jarayonida mumkin", "Agar o'rtog'im xato qilgan, bajara olmagan bo'lsa, hammaning yuzini yerga qaratmasligi uchun unga yordam berish kerak" degan qoidalarga muvofiq keladigan amaliy tajirani shakllantirish imkonini beradi.

Katta guruhda topshiriq berishning quyidagi shakllari bo'lishi mumkin: "Hamma birgalikda rasmni e'tibor bilan tomosha qiling. Har biringiz hali gapirilmagan, e'tibor berilmagan narsalar haqida hikoya

qilib berishga harakat qilasiz. Shunda siz bir –biringizga yordam berasiz va sizning hikoyalaringiz qiziqarliroq bo'ladi" yoki "Hammangiz birgalikda shahar ko'chasi rasmini chizasiz har biringiz bitta uyning rasmini chizasiz lekin ulardan birida odamlar yashaydi. Boshqasida magazin joylashadi. Uchinchisi kulub yoki maktab kim nima o'ynasa shu hosil bo'ladi. Biroq u bezalgan, chiroyli bo'lishi ular har uyni tartibli, ishtiyoq bilan chizishi kerak.

Xuddi shu topshiriqni boshqacha shaklda ham bo'lishi mumkin: "Hammangiz birgalikda shahar ko'chasining rasmni chizasiz. Ko'chada turli binolar: turar joylar magazinlar kinoteatrlar va boshqalar bor, odamlarga ko'chamizda yashash qulay, ularga magazinlar ham, bolalar bog'chasi ham yaqin bo'lishi uchun, keling, kim nimani chizishni oldindan kelishib olaylik" topshiriqni bunday holdda berishda ishni oldindan taqsimlash zarur bo'ladi.

2.3. Tajribi –sinov ishlari natijalari va samaradorligi

MBI yuzasidan tajriba sinov ishlari tadqiqotlarini Jizzax shahar XTBga qarashli №10 sonli Do'stlik nomli maktabgacha ta'lim muassasasida olib bordik.tajriba-sinov ishi 3 bosqichda oilb borildi.

Birinchi bosqich-aniqlovchi tajrib bo'lib, bunda Do'stlik nomli MTMda bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalashda Montessori metodikasidan foydalanish jarayoni tashkil qilinganligi o'rganildi.o'rganish jarayonida pedagogik va metodik akdabiyotlar vaqtli matbuot materiallari yig'ildi.

Ikkinchi bosqich-tajriba ishlari olib borildi.bu bosqichda tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari bilan aqliy fazilatlarni shakllantiruvchi mashg'ulotlar o'tkaildi. ?aftalik mashg'ulotlar setkasi asosida mashg'ulotlar ishlanmasi tayyorlandi.

Uchinchi bosqich- olingan natijalar tahlil qilindi.bolalarning bilim, ko'nikma, va malakalarini ishlab chiqishda maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasiga qo'yiladigan minimal talablarga amal qilindi.

№10 sonli Do'stlik MTMda rejaga asosan o'tiladigan mashg'ulotlardan namuna keltiramiz.

1. “Vatanimiz-o'zbekiston” mavzusida suhbat.

Dastur mazmuni.Bolalarni o'zbekiston respublikasida turli xalqlar, lekin hammadan ko'proq o'zbeklar yashashini, xalqlar o'rtasida do'stona munosabat borligini,o'zbekistonning poytaxti –Toshkent shahri ekanligini, o'zbek milliy kiyimlari xususiyatlarini tanishtirish.

Aqliy tarbilash: o'zarao totuvlikka o'rgatish, muloqot madaniyatini, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhini uyg'otish.

Mashg'ulot uchun jihoz: Tarbiyachining vatanimiz haqidagi hikoyasi.

o'zbek milliy kiyimlari kiygan qo'g'irchoqlar va ularni tavsiflash.

2.“Jonajon tabiat” haqida suhbat.

Dasutr mazmuni. Bolalarda jonajon tabiatga muhabbatni, unga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash.Bolalrni estetik his tuyg'ularini , o'z taassurotlarini boshqalar bilan o'rtoqlashish istagini tarbiyalash.

Mashg'ulot uchun jihoz:to'rt fasl tasvirlangan tabiat manzarasi. Bolalar o'zlari ham tabiat manzaralarini chizadilar.

3.“Kitoblarga qanday munosabatda bo'lish kerak” mavzusida suhbat

Dastur mazmuni: Bolalarning odob haqidagi tasavvurlarini aniqlash Kitoblarga ehtiyotkorlik bilan , tartibli munosabatda bo'lishga o'rgatish.Kitoblarni yaratadigan odamlarnig mehnatiga hurmat ruhida tarbiyalash bolalarni badiiy asarning asaosiy mazmunini tushuntirib berishga o'rgatish.

Mashg'ulot quyidagi savollar yordamida boshlanadi.Bolalar sizlar yaqinda qayerga ekskursiyaga bordingiz.(Kutubxonaga)U yerda sizlar nimalarni ko'rdingiz? (kitoblarni) Kutubxonachilar nima qilishadi?

Nima uchun kitoblarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak?

Tarbiyachi yakun yasaydi: Kitobni yaratish uchun ko'p odamlar mehnat qilishadi.Kitob uchun qog'oz tayyorlanadi, matn bosib chiariladi, ular yelimlanadi, muqovalanadi, rassomlar unga rasmlar chizadilar.Kitobni ehtiyot qilish mana shu odamlarning mehnatini hurmat qilish demakdir.Kelinglar biz ham guruhimizdagi

kitoblarni asrab avaylik, ukajonlarimizga yaxshi ahvolda yetkazishga harakat qilaylik.

Umuman MTMdagi barcha mashg'ulotlar jarayonida bolalarda aqliy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Ammo, biz tajriba o'tkazishimiz uchun tajriba guruhini aniqlab oldik va quyidagi mezonlarni ishlab chiqqan holda tajribadan oldingi holatni o'rgandik. Mashg'ulotlar orqali bolalarnig aqliy fazilatlarini shakllantirishning reyting tahlilini foizlarda keltiramiz. Tajribadn oldingi hola nazorat va tajriba guruhlarida bir xil

№	Montessori metodikasi asosida ishlab chiqilgan mezonlar	Aqliy fazilatlarni shakllantirish darajasi
1	Mehnat vositasida aqliy tarbiyalash	56%
2	Nutq va tafakkurin rivojlantirish mashg'ulotlari jarayonida aqliy tarbiya berish	60%
3	Badiiy adabiyot yordamida aqliy tarbiya berish	62%

Biz tajriba ishlarini olib boirish jarayonida ertak asosida bolalardagi aqliy fazilatlarni o'stirishga e'tibor qaratdik. Bunda tarbiyachi bolalarni o'z hohishlariga ko'ra ertakni tinglashga qo'yib beradiG` Bu bilan Montessori uslubidan foydalanayotganimizda hech qanday ertak aytib berilmaydi degan fikrdan yiroqmiz. Bolalarga oddiy bolalar yoki hayvonlar hayotidan real voqyealar aytib beriladi va bolalar ularni istagan ertakni eshitganlari kabi qiziqish bilan tinglaydilar. Montessori metodikasi boshqa ususllardan farq

qilidi. Ya'ni hamma bolalarni bir joyga to'plab, stullarga o'tqazib ertak tinglashga majbur qilinmaydi. Hoxlovchilar ertak tinglaydi, qolganlari o'zlari qiziqqan narsalar bilan shug'ullanishlari mumkin. Tarbiyachi hohishiga ko'ra emas balki bolalar istagiga ko'ra hikoya qilinadi. Bolalarga rasmlar albomlar tavsiya qilinadi va ular shu asosda ertak to'qishlari, hatto o'zlari eshitgan ertaklarni qayta-qayta hikoya qilib berishlarini so'rashlari mumkin. Shunda ularda "Ertaklardagi voqyealar haqiqatmi?", "Bo'g'irsoq haqida aytib bering, u tulkidan qochib ketsin" , "bo'ri quyinni yesa og'riydimi" kabi savollar bilan murojaat qilishlariga hojat qolmaydi.

Shuningdek mehnat orqali bolalarda aqliy fazilatlarini tarbiyalashda Montessori metodikasidan foydalandik.

Bolalarni qiziqishlariga ko'ra mehnatga taqsimladik. Montessori bolalarni nimaga qiziqishlarini loydan nars yasashlarini aytish orqali bilib olish ma'qullroqdir Keyinchalik bolalarnig mehnat va qobiliyatlariga qarab mehnatga yo'naltiramiz.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida aqliy fazilatlarini akllantirishda ularni lug'at boyligini aqliy so'zlar bilan yanada boyitishga e'tibor qaratdik. Buning uchun bolalarni ikki guruhga ajratib ularga "Sehrli so'zlar" aytish talabini qo'ydik. Bu orqali bolalarda so'z boyligi oshadi va ijobiy aqliy sifatlar shakllanadi.

Tajribadan keyingi holat

№	Montessori metodikasi asosida ishlab chiqilgan mezonlar	Aqliy tarbiya berish darajasi	
		Nazorat guruhida	Tajriba guruhida
1	Mehnat vositasida aqliy tarbiyalash	58%	68%
2	Nutq va tafakkurin rivojlantirish mashg'ulotlari jarayonida aqliy tarbiya berish	62%	72%
3	Badiiy adabiyot yordamida aqliy tarbiya berish	66%	78%

Tajriba-sinov ishlari natijalaridan quyidagi xulosalarga keldik:

1.Mehnat vositasida bolalarni aqliy tarbiyalashda bolalarni erkin-ixtiyoriy mehnat jalb qilish kerak ekan;

2.Tarbiyachi nutqida ijobiy, sehrli so'zlarning ko'pligi bolalarni ham shu so'zlarni egallashlariga yordam beradi.

3.Badiiy adabiyot orqali aqliy tarbiyalashda bolalarda bir-birini tinglash, o'zini fikrini bayon etish, yashilik va yomonlikni ajrata olish kabi xislatlarni tarkib toptirish mumkin.

XULOSA

“Kichik yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashda Montessori metodikasidan foydalanish” mavzusi borasida olib borgan ushbu tadqiqotimizni yakunlar ekanmiz bu borada o’rgangan barcha ma’lumotlarni tahlil qilib shunday xulosaga keldik.

Sharq mutafakkirlarini tarbiya haqidagi qarashlarini o’rganganimizda quyidagi qoida xususiyatlari asosiy o’rinda turganini ko’rdik:

- a) Kattalarga hurmat kichiklarga izzat;
- b) Ota –onani e’zozlash;
- v) Diniy va aqliy tarbiya yaxlitligi;
- s) Bolani yoshlikdan kasb –hunarga yo’naltirish;

ye) Ta’limga yo’naltirish va yurtiga foydasi tegadigan inson qilish va xakozo.

G’arb mutafakkirlarini qarashlari farq qilishini ko’rdik. G’arb mutafakkirlarini asosiy qarashlarida tarbiyada erkinlik va dunyoviy bilimlarni diniy bilimlardan ertaroq alohida bo’lganini ko’rdik, lekin mutafakkirlarni qarashlarida o’xshashlik tomonlari ham bor jumladan bolani har tomonlama bilimli qilib yetishtirish kelajakda o’z sohasida yetuk mutaxassi bo’lishi hayot tajribalariga ega bo’lishi va bobomiz Sadiiy Sheroziy ta’kidlagandek “Gar inson olmasa hayotdan ta’lim uni o’qitolmas hech bir muallim”

Demak maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash borasida olib boriladigan ishlarning asosiy maqsadi bolalarga aqliy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning aqliy his –tuyg’u va sifatlarini ijobiy munosabatlar va xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilmog’i zarur.

Ana shu maqsadda amalda qabul qilingan “maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning ta’lim tarbiyasiga qo’yiladigan davlat talablari” va “Bolajon” bolalarni rivojlantirishi va maktabga tayyorlashi tayanch dasturini joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Har bir bola shaxsi, uning bugungi va kelgusidagi aqliy rivojlanishi haqida g’amxo’rlik qilish pedagog tarbiyachilarning kundalik e’tiborini talab etadi: Bunda bola shaxsi va bolalar jamoasini shakllantirish vazifalari uzviy ravishda qo’shib olib borilmog’i zarur hisoblanadi. Pedagog tarbiyachi bir vaqtning o’zida bolaning boshlang’ich aqliy normalarni anglab yetishni hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolaning his –tuyg’ulariga ta’sir ko’rsatishni, xulqning ijobiy shakllarini tashkil etishni ko’zda tutsa, aqliy tarbiya usullari samarali bo’ladi, maktabgacha yoshdagi bolalarda so’z va ish birligini shakllantirishga yordam beradi. Aqliy tarbiyaning usullarini qo’llaganda, mutafakkirlarimiz va chet el pedagoglarning asarlarini hayotga tatbiq etish katta samara beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo’llash muhim ahamiyatga ega bunda asosan namuna va aqliy normalarni anglab yetishni hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolaning his –tuyg’ulariga ta’sir ko’rsatishni, xulqning ijobiy shakllarini tashkil etishni ko’zda tutsa, aqliy tarbiya usullari samarali bo’ladi, maktabgacha yoshdagi bolalarda so’z va ish birligini shakllantirishga yordam beradi. Aqliy tarbiyaning usullarini qo’llaganda, mutafakkirlarimiz va chet el pedagoglarning asarlarini hayotga tatbiq etish katta samara beradi.

Tafakkur, ixtiyoriy eslab qolish, aqliy –irodaviy rivojlanish sohasida sezilarli siljish ro’y beradi. Qiziquvchanlikni o’sib borishi farqlashning

rivojlanishi va his tuyg'uning chuqurlashishi bolalarni mashg'ulotlarda muayan vaqt davomida ishlashga; faqat ko'rish emas, balki kuzatish, sezish, taqqoslash, tahlil qilishga o'rgatish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishini asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalarda ta'lim jarayonida Montessori metodikasidan foydalanishga erishish edi. Tadqiqot jarayonida shu maqsaddan kelib chiqib ish olib bordik va quyidagi metodikalarni tajribalarda qo'lladik:

1. Mehnatni ixtiyoriy tashkil etish
2. Bolalarni lug'at boyligini oshiruvchi metodikalar
3. Diqqat va xotirani boyitish bunda badiiy adabiyot vositasida amalga oshirildi.

Bolalarni aqliy tarbiyalashning turli vazifalarini hal etadigan turli xildagi adabiyotlarni o'rganish va ular orqali bolalarga samarali aqliy tarbiya berish bugungi kun talabi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I. A O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. O'zbekiston n; Toshkent 2011.
2. Karimov I. A “Yuksak mana'viyat –engilmas kuch”-Toshkent.: 2008 yil
3. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari” Toshkent. O'zbekiston 2009 yil.
4. Karimov I.A. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. Toshkent.: “O'zbekiston” 2010 yil
5. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” Toshkent.: “O'zbekiston” 2010 yil
6. Karimov I.A. “Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent, Sharq. 1998y, 64 byet
7. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” Toshkent. Sharq 1998y 182 byet
8. Avloniy A. «Turkiy guliston yoxud ahloq» T.: «O'qituvchi. 1992y
9. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» T.: «Sharq» 1997y
- 10.«Barkamol avlod orzusi» T.: «Sharq» 1998y
- 11.«Bolalar bog'chalari uchun dasturlar» T.:1992y
- 12.“Barkamol avlod yili” davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori . O'zbekiston ovozi 28.01.2010 y
- 13.«Bolalar bog'chasida tarbiyachi programmasiga oid metodik ko'rsatmalar»T.: 1967y
14. Godina G.N. «Maktabgacha kichik yoshdagi bolarga ta'lim tarbiya berish T.: 1989y
- 15.Daminova M., Adambyekova T. «O'yin mashg'ulotlari» T.: «O'qituvchi» 1993y
- 16.Logipova V.I. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» T.: «O'qituvchi» 1992y
- 17.Yusupova G. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi». T «O'qituvchi» 1993
- 18.Fausyek Yu.U. Motessori bolalar bog'chasi. T.: «Yangi asr avlodi» 2007y
- 19.Yusuf xos Xojib. «Qutadg'u bilig» T.: «Yulduzcha» 1989y

- 20.Yusupov E., Ismoilov F. «Inson barkamolligi» T.: «O`qituvchi» 1989y
- 21.Yo`ldoshyev J. «Ta'limimiz istiqbolli yo`lida» T.: «Sharq» 1996y
- 22.«Oila pyedagogikasi» T.: «Aloqachi» 2007y
- 23.Xalo` ta'limi jurnali. 2001 yil 3 son
- 24.Xalq ta'limi jurnali. 2004 yil 3 son
- 25.Hoshimova K., Nishonova N. «Pedagogika tarixi» T.: «O`qituvchi» 1994y
- 26.Hasanboyeva O. «Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi» T.: 1996y
- 27.Shodieva Q. “Nutq o'stirish uslubiyoti” T.: 2008 й
- 28.Jo'raev S., F.Qodirov “Kichkintoylar nutqini o'stirish” T.: 2005 y.
- 29.Asqarova M., G'.Qodirova “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish” T.:
“O'qituvchi” 2001 y
- 30..Ivanov P.I, M.Zufarova “Umumiy psixologiya” T.: 2008 y
- 31.G'oziev E. “Ontogeniz psixologiyasi” 2010 y

Internet saytlari:

- 32.www.press-servis/ .uz.
- 33.www. Gov.uz.
- 34.www. Iscs.uz
- 35.www. Edu.uz.
- 36.www. Ziyonet. Uz